

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT FAKULTETI**

**«TURIZM» KAFEDRASI**

**MOL-MULKNI UZOQ MUDDATLI SUG'URTA QILISH MUAMMOLARI  
(DASK «Kafolot» AJ Xorazm filiali misolida)**

**Bajaruvchi: Babadjanov Maxmud Shonazarovich**

**Rahbar: dots. U. Jabbarov**

**Urganch – 2015**

<b>KIRISH</b> .....	3
---------------------	---

**1-BOB. SUG`URTA FAOLIYATI VA SUG`URTA XIZMATLARI  
BOZORIDA MOL-MULK SUG`URTASINING O`RNI**

1.1. Sug`urta faoliyatining nazariy asoslari .....	6
1.2. Sug`urta xizmatlari turlari .....	16
1.3. Mol-mulkni sug`urta qilish tartibi .....	35

**2-BOB. MOL-MULKNI SUG`URTALASH VA SUG`URTA  
XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI**

2.1. Transport vositalarini sug`urtalash muammolari .....	48
2.2. Mol-mulk sug`urtasi sug`urta mukofotlari yuzasidan soliq imtiyozlari .....	60
2.3. Sug`urta tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari .....	65

<b>XULOSA</b> .....	72
---------------------	----

<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b> .....	75
--	----

<b>ILOVALAR</b> .....	77
-----------------------	----

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Iqtisodiyotni yanada barqaror rivojlantirishni ta'minlash va diversifikatsiya hamda modernizatsiyalash talab qiladigan dolzarb vazifalar qatorida sug'urta tizimini, hususan mol-mulkni sug'urtalash mexanizmini takomillashtirish masalasi ham muhim o'rin egallaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «2014-yilda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarida zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo'lgan 154 ta yirik obyekt foydalanishga topshirildi.

Ularning qatorida yiliga 60 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan «Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi» MChJ bazasida «Damas» va «Orlando» rusumidagi yengil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish», «Jizzax viloyatida 760 ming tonna portlandsement yoki 350 ming tonna oq sement ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish», «80 ming tonna rux konsentratini qayta ishlash bo'yicha rux zavodini rekonstruksiya qilish», «Mis eritish zavodida yangi sulfat kislota sexini qurish», elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatini 50 megavattga oshirish maqsadida «Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini to'liq miqyosda modernizatsiya qilish», «Qoraqalpog'iston Respublikasidagi «Mang'it» MChJ bazasida yiliga 5 ming tonna mahsulot chiqarish quvvatiga ega bo'lgan ip-kalava yigiruv korxonasi tashkil etish» va boshqa obyektlarni tilga olish mumkin».<sup>1</sup>

Sug'urta tizimini isloh qilish va sug'urta siyosatini takomillashtirish, bugungi kunning eng muhim dolzarb ustuvor vazifasi hisoblanadi. Hozirgi kunda sug'urta tizimi liberilizatsiya qilinmoqda. Sug'urta tizimini liberilizatsiyalash

---

<sup>1</sup> 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2015 yil 17 yanvar № 11 (6194).

asosida sug`urta bozorini rivojlantirish va amaliyotdagi o`zgarishlarni tadqiq qilish, kadrlash tayyorlash jarayoniga joriy etish, tayyorlanayotgan sug`urtachilarni mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalashtirish jarayonlari bilan tanishtirish muhim vazifa hisoblanadi. Sug`urtaning ob`ektiv iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatini, ularning funksiyalari va sug`urta tizimi elementlarini nazariy jihatdan o`zlashtirish zarur.

Bundan kelib chiqqan holda sug`urta haqida iqtisodchi olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy nazariyalarni, sug`urtaning iqtisodiy mohiyati, funksiyalarini, respublikamizning mustaqillik yillarida hamda hozirgi davrda olib borilayotgan sug`urta siyosatining asosiy yo`nalishlari va tamoyillarini o`rganish vazifalarini amalga oshirish belgilab olindi.

Bu esa, mavzuning tanlanishi uchun asos bo`lib, uning dolzarbligini belgilab beradi.

**BMIning maqsadi** iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash sharoitida mol-mulkni sug`urtalash mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**BMIning vazifalari:**

- sug`urta faoliyatining nazariy asoslarini yoritish;
- sug`urta xizmatlari turlarini tadqiq qilish;
- mol-mulkni sug`urta qilish tartibini o`rganish;
- transport vositalarini sug`urtalash muammolarini ochib berish;
- mol-mulk sug`urtasi sug`urta mukofotlari yuzasidan soliq imtiyozlarini tadqiq qilish;
- mol-mulk sug`urtasi va sug`urta tarmoqlarini rivojlantirish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**BMI ob`ekti** DASK «Kafolot» AJ Xorazm filiali hisoblanadi.

**BMI predmeti** mol-mulkni sug`urta qilish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar yig`indisidir.

**Tadqiqot metodlari** guruhlash, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya, deduksiya, moliyaviy koeffitsient usullari.

**Natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** BMI natijalarida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan sug`urta munosabatlarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda qo`llash mumkin.

**Natijalarining joriy qilinishi.** BMIda ishlab chiqilgan tavsiyalarni amaliyotga tadbiq etish bo`yicha DASK «Kafolot» AJ Xorazm filiali tomonidan ma`lumotnoma berilgan.

**BMI tuzilishi va hajmi.** Ish tarkibi kirish, ikkita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan iborat. Ishning matni 75 betni tashkil etadi.

# **1-BOB. SUG`URTA FAOLIYATI VA SUG`URTA XIZMATLARI BOZORIDA MOL-MULK SUG`URTASINING O`RNI**

## **1.1. Sug`urta faoliyatining nazariy asoslari**

**Sug`urta** deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to`laydigan sug`urta mukofotlaridan, shuningdek sug`urtalovchining boshqa mablag`laridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug`urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug`urta shartnomasiga muvofiq sug`urta tovonini (sug`urta pulini) to`lash yo`li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi.

**Sug`urta faoliyati** deganda sug`urta bozori professional ishtirokchilarining sug`urtani amalga oshirish bilan bog`liq faoliyati tushuniladi.

Sug`urta quyidagi sohalarga bo`linadi:

- hayotni sug`urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog`lig`i, mehnat qobiliyati va pul ta`minoti bilan bog`liq manfaatlarini sug`urta qilish, bunda shartnoma bo`yicha sug`urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug`urta pullarining sug`urta shartnomasida ko`rsatib o`tilgan oshirilgan foizni o`z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to`lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

- umumiy sug`urta (shaxsiy, mulkiy sug`urta, javobgarlikni sug`urta qilish hamda hayotni sug`urta qilish sohasiga taalluqli bo`lmagan boshqa sug`urta turlari).

Sug`urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog`liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug`urta sohalari sug`urta turlariga (klasslariga) bo`linadi. Sug`urta turlari (klasslari) O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi (1-ilova).

Sug`urta bozorining professional ishtirokchilari sug`urta faoliyatining sub`ektlari hisoblanadi. Sug`urtalovchilar, sug`urta vositachilari, adjasterlar, aktuariylar, sug`urta syurveyerlari, shuningdek assistans sug`urta bozorining professional ishtirokchilar, sug`urta brokeri, qayta sug`urta brokeri va sug`urta

agenti sug`urta vositachilari hisoblanadilar.

Tegishli turdagi sug`urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo`lgan va sug`urta shartnomasiga muvofiq sug`urta to'voni (sug`urta puli) to`lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo`lgan yuridik shaxs **sug`urtalovchi** deb e`tirof etiladi.

Sug`urtalovchilar sug`urtani amalga oshirishga bevosita bog`liq bo`lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanishlari mumkin emas (O`zbekiston Respublikasi «Sug`urta faoliyati to`g`risidagi» Qonunining 6-1-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

Sug`urta qildiruvchining nomidan va topshirig`iga binoan sug`urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo`yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs **sug`urta brokeri** hisoblanadi.

Sug`urta brokerining faoliyati sug`urta sohasidagi boshqa faoliyat turlari bilan qo`shib olib borilishi mumkin emas, qayta sug`urta brokerining faoliyati bundan mustasnodir. Sug`urta brokeri sug`urtalovchining ustav fondida ishtirok etishga haqli emas. Sug`urta brokeri o`zi bilan sug`urta qildiruvchi o`rtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko`rsatadi.

O`z nomidan va qayta sug`urta qilish shartnomasi bo`yicha sug`urta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sug`urtalovchining topshirig`iga binoan qayta sug`urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo`yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs **qayta sug`urta brokeri** hisoblanadi. Qayta sug`urta brokeri sug`urtalovchining ustav fondida ishtirok etishga haqli emas. Qayta sug`urta brokeri o`zi bilan sug`urta qildiruvchi o`rtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko`rsatadi. Sug`urtalovchining nomidan va topshirig`iga binoan sug`urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo`yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs **sug`urta agenti** hisoblanadi. Sug`urtalovchining boshqaruv organlari rahbarlari sug`urta agenti bo`la olmaydilar.

Sug`urta agenti o`z faoliyatini sug`urtalovchilar bilan tuzilgan topshiriq shartnomalari (agent bitimlari) asosida amalga oshiradi. Sug`urta agenti faqat o`zi bilan topshiriq shartnomasi (agent bitimi) tuzgan sug`urtalovchi reestriga kiritilganidan keyin o`z faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Bunda quyidagilarga:

- sug`urta agentining tegishli turdagi sug`urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo`lmagan sug`urtalovchilar nomidan sug`urta shartnomalari tuzishiga;

- agar O`zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo`lsa, O`zbekiston Respublikasi hududida sug`urta bo`yicha sug`urta agentining O`zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda ro`yxatga olinmagan chet el sug`urta tashkilotlari nomidan sug`urta shartnomalari tuzish bilan bog`liq bo`lgan vositachilik faoliyatiga yo`l qo`yilmaydi.

Sug`urta agenti – jismoniy shaxs o`z nomiga, to`lovlar naqd pullar bilan amalga oshirilganida esa yaqin qarindoshlari (otasi, onasi, xotini, eri, o`g`li, qizi, opa-singillari va aka-ukalari) nomiga sug`urta shartnomalari bo`yicha hujjatlar yozishga, shuningdek o`z foydasiga sug`urta shartnomalari tuzishga va bunda mazkur sug`urta shartnomasi bo`yicha sug`urta agenti sifatida ish ko`rishga haqli emas.

**Adjaster** sug`urtalovchining (sug`urta qildiruvchining) va boshqa buyurtmachining topshirig`i bo`yicha quyidagi xizmatlarni ko`rsatuvchi, o`z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo`lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo`lgan jismoniy shaxsdir:

- sug`urta hodisasi yuz berganidan keyin sug`urta ob`ektini ko`zdan kechirish va tekshirish;

- sug`urta hodisasi faktlarini va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish;

- sug`urta ob`ektining shikastlanish sabablarini va sug`urta hodisasi mavjudligini aniqlash;

- sug`urta hodisasi mavjud bo`lgan taqdirda - sug`urta hodisasi oqibatida



vujudga kelgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini belgilash;

- to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta to'voni summasini aniqlash;
- sug'urta hodisasi bo'yicha xulosa tuzish.

Adjuster o'z faoliyatini sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) va boshqa buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi:

- sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga;

- sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;
- sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

**Aktuar** tashkilot quyidagilarni o'z ichiga oladigan aktuar xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxsdir:

- sug'urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sug'urta majmui bo'yicha zarar etkazilishining takroriylikni va ularning oqibatlari og'irligi darajasini belgilash;

- sug'urtalovchining zarur sug'urta zaxiralari va fondlarini matematik jihatdan asoslash hamda hisob-kitob qilish, ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish;

- sug'urtalovchining investitsiyalar sifatida to'plangan badallardan foydalanishida kapital qo'yilma normasi va netto-stavka miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko'maklashadigan tarzda aniqlash (1.1.1-jadval);

- sug'urta jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sug'urta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish;

- sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har bir turi bo'yicha tarif stavkalarini sug'urtalovchilar uchun ularni o'tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiyatini hisobga olgan holda belgilash;

- sug'urtalovchining investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisob-kitoblardan foydalangan holda baholash;

- sug`urtalovchining daromadlarini sug`urtaning (qayta sug`urta qilishning) har xil turlari bo`yicha rejalashtirish;

- aktuar hisob-kitoblarini amalga oshirish bo`yicha dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish;

- sug`urta bilan bog`liq boshqa aktuar xizmatlari ko`rsatish.

### 1.1.1-jadval

#### Sug`urtada tarif siyosati. Netto-stavkalarini hisoblash bo`yicha sug`urta turlarining tasniflanishi <sup>2</sup>

<b>Sug`urta turlari</b>		
<b>Hayot sug`urtasi</b>	<b>Umumiy sug`urta</b>	
	<b>Ommaviy sug`urta turlari</b>	<b>Yirik risklar bo`yicha sug`urta turlari</b>
<b>Ayrim tegishli bo`lgan sug`urta turlari</b>		
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ma`lum yoshgacha yashash sug`urtasi</li> <li>- Vafot etishdan sug`urtalash</li> <li>- Rentalar to`lovini nazarda tutuvchi barcha sug`urta turlari</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Baxtsiz hodisalardan sug`urtalash</li> <li>- Tibbiyot sug`urtasi</li> <li>- Fuqarolik javobgarligi sug`urtasi</li> <li>- Mol-mulk sug`urtasi va boshqalar</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Sanoat korxonalarini sug`urtalash</li> <li>- Aviatsiya va kosmik sug`urta</li> <li>- Tabiiy ofatlardan sug`urtalash</li> </ul>
<b>Netto-stavkaning hisoblanishiga ta`sir etuvchi sug`urta turlarining xususiyatlari</b>		
Ehtimollik elementi insonning hayot davomiyligi ehtimolliги bilan bog`liq	Bir turdagi ko`p sonli ob`ektlar va ular to`g`risida statistik ma`lumotlar	Sug`urta hodisalari kamdan kam sodir bo`ladi, sug`urta ob`ektlari soni chegarlangan
<b>Netto-stavkani hisoblashning xususiyatlari</b>		
Ma`lumotlar sifatida demografik statistikadan foydalaniladi, vafot etish darajasi jadvali, sug`urta tariflarining diskontlanishi	Tariflarning hisobi statistik usullar yordami o`rtacha ma`lumotlar asosida amalga oshiriladi	Netto-stavkani hisoblashda bir nechta o`n yillik ma`lumotdan foydalanish taqozo etiladi, kam sonli ob`ektlar uchun maxsus tariflarni hisoblash usullarining xalqaro darajada kelishuvi

<sup>2</sup> Климова М.А. Страхование. Учебное пособие. – М.: ПРИОР 2004. стр 137.

Aktuar tashkilot shartnomaga muvofiq to'lov asosida faqat aktuar xizmatlarini ko'rsatishi mumkin.

**Aktuariy** maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikatini olgan va aktuar tashkilot shtatida turgan yoki aktuar tashkilot bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan jismoniy shaxsdir.

Aktuariy sifatsiz aktuar xizmatlarini ko'rsatganlik, tijorat sirini yoki qonun bilan ko'riqlanadigan boshqa sirni oshkor qilganlik va aktuar tashkilotning zarar ko'rishiga olib kelgan o'zga xatti-harakatlari natijasida etkazilgan zarar uchun aktuar tashkilot oldida javobgar bo'ladi.

**Sug'urta syurveyeri** quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislariga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir:

- sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta ob'ektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

- sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash;

- tekshirilayotgan sug'urta ob'ekti bo'yicha xulosa tuzish.

Sug'urta ekspertizasini o'tkazishga vakolatli mutaxassislarning (ekspertlarning) ish tartibi sug'urta syurveyeri tomonidan belgilanadi. U o'z faoliyatini sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi:

- sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga;

- sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

- sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Sug'urta syurveyeri ishining natijalari bo'yicha hisobot taqdim etiladi, sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bu hisobotdan sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzish chog'ida foydalanishi mumkin.

**Assistans** sug`urta qildiruvchilarga (sug`urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug`urtalovchilarga sug`urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko`rsatuvchi, shuningdek ularga moliyaviy ko`mak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Assistans o`z faoliyatini sug`urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi. Assistans xizmatlariga sug`urta qildiruvchilar (sug`urtalangan shaxslar) ishtirokisiz faqat sug`urtalovchilar tomonidan haq to`lanadi:

- sug`urtalovchi sifatida sug`urta va qayta sug`urta qilish operatsiyalari o`tkazishga;

- sug`urta bo`yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

- sug`urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Sug`urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli davlat organi amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi va uning xodimlari sug`urta bozori professional ishtirokchilarining ustav fondida va boshqaruv organlarida ishtirok etishga, shuningdek sug`urta vositachisi sifatida ish yuritishga haqli emaslar bundan «O`zagrosug`urta» davlat-aksiyadorlik sug`urta kompaniyasi, «Kafolat» davlat-aksiyadorlik sug`urta kompaniyasi hamda «O`zbekinvest» eksport-import milliy sug`urta kompaniyasi ustav fondida va boshqaruv organlarida ishtirok etish mustasno.

Sug`urtalovchilar va sug`urta brokerlari, shuningdek sug`urta bozorining yuridik shaxs bo`lgan boshqa professional ishtirokchilari qonunlarda nazarda tutilgan tashkiliy-huquqiy shakllarda tuziladi.

Sug`urtalovchilar va sug`urta brokerlarini davlat ro`yxatidan o`tkazish O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi, sug`urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarini davlat ro`yxatidan o`tkazish esa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qayta sug`urta brokerlari, adjasterlar, aktuar tashkilotlar, sug`urta syurveyerlari, assistanslar davlat ro`yxatidan o`tkazilganidan keyin bir haftalik muddatda bu haqda maxsus vakolatli davlat organini yozma ravishda xabardor qiladi. Sug`urtalovchi ustav fondining kamida to`qson foizi muassislarning (ishtirokchilarning) pul mablag`laridan shakllantiriladi. Sug`urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag`lardan va boshqa jalb qilingan mablag`lardan foydalanishga yo`l qo`yilmaydi. Sug`urtalovchining boshlang`ich ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar muassislar tomonidan shakllantirilgan bo`lishi va qonun hujjatlarida belgilangan ustav fondining eng kam miqdoridan kam bo`lmasligi kerak.

Sug`urtalovchilar va sug`urta brokerlarining sug`urta faoliyati O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi. Litsenziyada sug`urtalovchi amalga oshirishni nazarda tutayotgan sug`urta turlari (klasslari) ko`rsatiladi. Sug`urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish shakllari va sug`urta faoliyatini davlat tomonidan nazoratga olishni shartli ravishda uchga bo`lish mumkin. Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko`rsatishicha, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning barchasida sug`urta bozori davlatning vakolatli idoralari tomonidan tartibga solib boriladi (1.1.1-rasm).

Litsenziyaning amal qilishi tugatilgan kundan e`tiboran besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi sug`urtalovchini tugatish to`g`risidagi ariza bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojaat etishi shart.

Sug`urtalovchilarni qo`shib yuborish, qo`shib olish, bo`lish, ajratib chiqarish, o`zgartirish shaklida qayta tashkil etish maxsus vakolatli davlat organining O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda beriladigan ruxsatnomasi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Sug`urtalovchi o`zining muassislari (ishtirokchilari) yoki sug`urtalovchining ta`sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqaruv organi qaroriga binoan tugatilayotganda maxsus vakolatli davlat organining ruxsatnomasi talab qilinadi.



**1.1.1-rasm. Sug`urta faoliyatini nazorat qilish shakllari <sup>3</sup>**

Tugatilayotgan sug`urtalovchi kreditorlarining talablari tugatishni amalga oshirish bilan bog`liq xarajatlar, shuningdek tugatiladigan sug`urtalovchining asosiy vazifalarini ta`minlash zaruratidan kelib chiqadigan xarajatlar to`langanidan so`ng quyidagi tartibda qanoatlantiriladi:

1-navbatda – hayotni sug`urta qilish sohasida majburiy sug`urta shartnomalari bo`yicha sug`urta qildiruvchilarning talablari;

2-navbatda – sug`urta qildiruvchilarning boshqa majburiy sug`urta shartnomalari bo`yicha talablari;

3-navbatda – boshqa sug`urta qildiruvchilarning talablari;

4-navbatda – budgetga, budgetdan tashqari fondlarga to`lovlarni nazarda tutuvchi to`lov (ijro) hujjatlari bo`yicha talablar. Ko`rsatilgan talablar to`liq qanoatlantirilgandan keyin ijtimoiy sug`urta bo`yicha talablar hamda jinoyat yoki ma`muriy huquqbuzarlik tufayli fuqarolarning mol-mulkiga etkazilgan zararni qoplash bo`yicha talablari qanoatlantiriladi;

5-navbatda – sug`urtalovchining boshqa kreditorlari talablari.

Quyidagi jadvalda «Kafolat» DASK AJning 2014 yildagi ma`lumotlari asosida sug`urta faoliyatining umumiy ko`rsatkichlari keltirilgan (1.1.2-jadval).

---

<sup>3</sup> Tadqiqotlar natijasida ishlab chiqildi.

## 1.1.2-jadval

### «Kafolat» DASK AJ 2014 yil yakunlari bo'yicha umumiy ma'lumot

Кўрсаткичлар	Бирлик	Барча суғурта турлари	Ихтиёрий суғурта турлари	Мажбурий суғурта турлари	Ихтиёрий суғуртанинг улуши,%	Мажбурий суғуртанинг улуши,%
Тузилган шартномалар	дона	583 286	245 873	337 413	42,2	57,8
Суғурта мукофоти	млн. сум	42 045,0	12 517,0	29 528,0	29,8	70,2
Олинган жавобгарлик	млрд. сум	15 100,0	9 900,0	5 200,0	65,6	34,4
Суғурта даъволари	дона	3 023	1 644	1 379	54,4	45,6
Суғурта тўловлари	млн. сум	7 206,0	1 168,0	6 038,0	16,2	83,8

Qabul qilingan sug'urta majburiyatlari bajarilishini ta'minlash uchun sug'urtalovchilar ham so'mda, ham chet el valutasida to'langan sug'urta mukofotlaridan qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda va shartlarda sug'urta zaxiralarini shakllantiradilar hamda joylashtiradilar. Sug'urtalovchining sug'urta zaxiralariga mos keluvchi aktivlari olib qo'yilishi mumkin emas. Sug'urtalovchilar ayrim tavakkalchiliklar bo'yicha yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdordan va majburiyatlar jaming yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdoridan ortiq majburiyatlarni o'z zimmalariga olishlari mumkin emas. Sug'urtalovchilar, sug'urta brokerlari va qayta sug'urta brokerlari maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritadilar. Sug'urta bozorida raqobatni cheklash yoki bartaraf etishga, bir sug'urtalovchilarga boshqalariga qaraganda asossiz afzalliklar berilishiga yoki olinishiga, sug'urta qildiruvchilar va boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga qaratilgan faoliyatga yo'l qo'yilmaydi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, tibbiyot,

seismologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlar sug`urtalovchilarning va adjasterlarning so`roviga ko`ra sug`urta hodisalarining ro`y berishi sabablari hamda holatlarini, shuningdek sug`urta tovonini (sug`urta puli) miqdorlarini sug`urtalovchi va adjaster tomonidan aniqlash uchun zarur bo`lgan tegishli axborot va hujjatlarni taqdim etishi shart.

Sug`urta qildiruvchilar, sug`urtalangan shaxslar va naf oluvchilar, sug`urta qildiruvchilarning va sug`urtalangan shaxslarning sog`lig`i, sug`urtalangan mol-mulk, sug`urta puli, bank hisobvaraqlari mavjudligi, ushbu hisobvaraqlardagi pul qoldiqlari va pul harakati haqidagi ma`lumotlar oshkor qilinishi mumkin emas.

Chet el sug`urta tashkilotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxslar – sug`urta bozori professional ishtirokchilarining muassislari (ishtirokchilari) bo`lishlari mumkin. O`zbekiston Respublikasi hududida chet el sug`urta tashkilotlari tomonidan sug`urta amalga oshirilishiga yo`l qo`yilmaydi.

## **1.2. Sug`urta xizmatlari turlari**

Sug`urta fuqaro yoki yuridik shaxs (sug`urta qildiruvchi) sug`urta tashkiloti (sug`urtalovchi) bilan tuzadigan mulkiy yoki shaxsiy sug`urta shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Shaxsiy sug`urta shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi. Qonunda ko`rsatilgan shaxslarga sug`urta qiluvchilar sifatida boshqa shaxslarning hayoti, sog`lig`i yoki mol-mulkini yoxud o`zining boshqa shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligini o`z hisobidan yoxud manfaatdor shaxslar hisobidan sug`urta qilish (majburiy sug`urta) majburiyati qonun bilan yuklangan hollarda sug`urta shartnomalar tuzish yo`li bilan amalga oshiriladi.

Majburiy sug`urtada sug`urta qildiruvchi sug`urtalovchi bilan sug`urtaning ushbu turini tartibga soladigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shartlarda shartnoma tuzishi shart. Qonunda fuqarolarning hayoti, sog`lig`i va mol-mulkini davlat budjeti mablag`lari hisobidan majburiy sug`urta qilish hollari nazarda tutilishi mumkin. Mulkiy sug`urta shartnomasiga muvofiq bir taraf shartnomada shartlashilgan haq (sug`urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea



sodir bo`lganda boshqa tarafga (sug`urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo`lsa, o`sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug`urtalangan mulkka etkazilgan zararni yoxud sug`urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog`liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug`urta puli) doirasida to`lash (sug`urta tovonni to`lash) majburiyatini oladi. Mulkiy sug`urta shartnomasi bo`yicha quyidagilar sug`urtalanishi mumkin:

- muayyan mol-mulkning yo`qotilishi (nobud bo`lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavfi;

- fuqarolik javobgarligi xavfi - boshqa shaxslarning hayoti, sog`lig`i yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar bo`yicha javobgarlik, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, shuningdek shartnomalar bo`yicha javobgarlik xavfi;

- tadbirkorlik xavfi - tadbirkorning kontragentlari o`z majburiyatlarini buzishi yoki tadbirkorga bog`liq bo`lmagan vaziyatlarga ko`ra bu faoliyat shart-sharoitlarining o`zgarishi tufayli tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan daromadlarni ololmaslik xavfi.

Mol-mulk uning asralishidan qonun hujjatlariga yoki shartnomaga asoslangan manfaatga ega bo`lgan shaxs (sug`urta qildiruvchi yoki naf oluvchi) foydasiga, uning mulkdori, mol-mulkka nisbatan boshqa ashyoviy huquqqa ega bo`lgan shaxs, ijarachi, pudratchi, saqllovchi, vositachi va boshqa shu kabilar foydasiga sug`urta shartnomasi bo`yicha sug`urtalanishi mumkin.

Sug`urtalangan mol-mulkning asralishidan sug`urta qildiruvchida va naf oluvchida manfaat bo`lmagan paytda tuzilgan mol-mulkni sug`urta qilish shartnomasi haqiqiy emas. Naf oluvchi foydasiga mol-mulkni sug`urta qilish shartnomasi naf oluvchining ismi yoki nomi ko`rsatilmadan tuzilishi mumkin. Bunday shartnoma tuzilganda sug`urta qildiruvchiga egasining nomi ko`rsatilmagan polis beriladi.

Bunday shartnoma bo`yicha huquqlarni amalga oshirishda bu polisni sug`urtalovchiga taqdim etish zarur. Boshqa shaxslarning hayoti, sog`lig`i yoki

mol-mulkiga zarar etkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug`urta qilish shartnomasi bo`yicha sug`urta qildiruvchining o`zining yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo`lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug`urtalanishi mumkin. Zarar etkazganlik uchun javobgarlik xavfi sug`urtalangan shaxs sug`urta shartnomasida ko`rsatilishi lozim. Agar bu shaxs shartnomada ko`rsatilmagan bo`lsa, sug`urta qildiruvchining o`zining javobgarlik xavfi sug`urtalangan hisoblanadi.

Zarar etkazganlik uchun javobgarlik xavfini sug`urta qilish shartnomasi, hatto shartnoma zarar etkazilganligi uchun javobgar bo`lgan sug`urta qildiruvchi yoki boshqa shaxs foydasiga tuzilgan yoxud shartnomada u kimning foydasiga tuzilgani ko`rsatilmagan taqdirda ham, zarar etkazilishi mumkin bo`lgan shaxslar (naf oluvchilar) foydasiga tuzilgan deb hisoblanadi. Zarar etkazganlik uchun javobgarlik uni sug`urta qilish majburiy bo`lgani sababli sug`urtalangan taqdirda, shuningdek qonunda yoki bunday javobgarlikni sug`urta qilish shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda sug`urta shartnomasi o`z foydasiga tuzilgan deb hisoblanuvchi shaxs zararni sug`urta puli doirasida to`lash to`g`risida bevosita sug`urtalovchiga talab qo`yishga haqli. Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfini sug`urta qilishga qonunda nazarda tutilgan hollarda yo`l qo`yiladi. Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfini sug`urta qilish shartnomasi bo`yicha faqat sug`urta qildiruvchining o`zining javobgarlik xavfi sug`urtalanishi mumkin. Ushbu talabga muvofiq bo`lmagan sug`urta shartnomasi o`z-o`zidan haqiqiy emas. Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfi, bu shartnoma shartlariga ko`ra sug`urta qildiruvchi qaysi taraf oldida tegishli javobgarlikni zimmasiga olishi lozim bo`lsa, o`sha taraf - naf oluvchi foydasiga, hatto sug`urta shartnomasi boshqa shaxs foydasiga tuzilgan yoxud unda kimning foydasiga tuzilgani aytilmagan taqdirda ham, sug`urtalangan hisoblanadi.

Tadbirkorlik xavfini sug`urta qilish shartnomasi bo`yicha faqat sug`urta qildiruvchining o`z tadbirkorlik xavfi va faqat uning foydasiga sug`urtalanishi mumkin. Sug`urta qildiruvchi bo`lmagan shaxsning tadbirkorlik xavfini sug`urta

qilish shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas. Sug'urta qildiruvchi bo'lmagan shaxsning foydasiga tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi sug'urta qildiruvchi foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi) boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga zarar etkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqti-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi. Sug'urta shartnomalari soni «Kafolat» DASK AJning 2014 yil yakunlari bo'yicha ma'lumotlari asosida quyidagi jadval va diagrammada ko'rsatilgan (1.2.1-jadval va diagramma).

### 1.2.1-jadval


#### «Kafolat» DASK AJ 2014 yil yakunlari bo'yicha sug'urta shartnomalari soni

Филиал	Шартнома сони		
	Умумий	Мажбурий суғурта	Ихтиёрий суғурта
Қорақалпоғистон Р.	28 478	12 486	15 992
Андижон	29 117	17 199	11 918
Бухоро	12 277	9 224	3 053
Жиззах	16 088	10 894	5 194
Қашқадарё	49 373	28 679	20 694
Навоий	50 541	17 612	32 929
Наманган	32 882	19 300	13 582
Самарқанд	37 546	25 890	11 656
Сурхондарё	23 099	11 935	11 164
Сирдарё	20 480	11 066	9 414
Тошкент вилояти	85 768	38 102	47 666
Фарғона	45 834	25 260	20 574
<b>Хоразм</b>	<b>26 997</b>	<b>8 436</b>	<b>18 561</b>
Тошкент шаҳар	74 747	58 853	15 894
Андеррайтинг М.	40 853	39 895	958
Бошқарув	9 206	2 582	6 624
<b>Умумий</b>	<b>583 286</b>	<b>337 413</b>	<b>245 873</b>

Shaxsiy sug`urta shartnomasi kimning foydasini ko`zlab tuzilgan bo`lsa, o`sha shaxs sug`urta pulini olish huquqiga ega bo`ladi. Agar shartnomada naf oluvchi sifatida boshqa shaxs ko`rsatilmagan bo`lsa, shaxsiy sug`urta shartnomasi sug`urtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Boshqa naf oluvchi ko`rsatilmagan shartnoma bo`yicha sug`urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sug`urtalangan shaxsning merosxo`rlari naf oluvchilar deb tan olinadi.

### 1.2.1-diagramma

#### «Kafolat» DASK AJ 2014 yil yakunlari bo`yicha sug`urta shartnomalari soni



Sug`urtalangan deb hisoblanmaydigan shaxs foydasiga, shu jumladan sug`urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug`urta qildiruvchi foydasiga shaxsiy sug`urta shartnomasi faqat sug`urtalangan shaxs yozma roziligi bilan tuziladi. Aks holda, shartnoma sug`urtalangan shaxs, bu shaxs vafot etgan taqdirda, uning merosxo`rlari da`vosi bo`yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Sug`urta mokofotlari «Kafolat» DASK AJning 2014 yil yakunlari bo`yicha ma`lumotlari asosida quyidagi jadval va diagrammada ko`rsatilgan (1.2.2-jadval va diagramma).

## 1.2.2-jadval

### «Kafolat» DASK AJ 2014 yil yakunlari bo`yicha sug`urta mukofotlari

Филиал	Суғурта мукофоти, минг сўм		
	Умумий	Мажбурий суғурта	Ихтиёрий суғурта
Қорақалпоғистон Р.	883 703,9	487 566,9	396 137,0
Андижон	1 557 645,7	887 322,7	670 323,0
Бухоро	697 510,1	449 695,1	247 815,0
Жиззах	702 572,7	413 721,6	288 851,1
Қашқадарё	2 458 433,8	1 295 194,8	1 163 239,0
Навоий	1 309 271,8	715 166,4	594 105,4
Наманган	1 326 874,9	795 261,9	531 613,0
Самарқанд	1 845 213,4	1 066 851,3	778 362,1
Сурхондарё	834 074,8	475 388,2	358 686,6
Сирдарё	541 778,2	356 471,5	185 306,7
Тошкент вилояти	5 069 747,7	2 926 045,1	2 143 702,6
Фарғона	2 189 359,1	1 474 421,2	714 937,9
<b>Хоразм</b>	<b>827 657,0</b>	<b>283 641,8</b>	<b>544 015,2</b>
Тошкент шаҳар	5 578 432,8	4 495 823,3	1 082 609,5
Андеррайтинг М.	2 510 964,8	1 694 616,3	816 348,5
Бошқарув	13 712 298,4	11 710 566,4	2 001 732,0
<b>Умумий</b>	<b>42 045 539,1</b>	<b>29 527 754,5</b>	<b>12 517 784,6</b>

Qonunda quyidagilarni sug`urta qilish majburiyati belgilab qo`yilishi mumkin:

- qonunda ko`rsatilgan boshqa shaxslarning hayoti, sog`lig`i yoki mol-mulki ularning hayoti, sog`lig`i yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi ehtimolini nazarda tutib;

- boshqa shaxslarning hayoti, sog`lig`i yoki mol-mulkiga zarar etkazilishi yoxud boshqa shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarning buzilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo`lgan o`zining fuqaroviy javobgarligi xavfi.

Sug`urta qildiruvchi bo`lish majburiyati qonun bilan unda ko`rsatilgan shaxslar zimmasiga yuklanadi. Fuqaroga o`z hayoti yoki sog`lig`ini sug`urtalash majburiyati qonuniy asosda majburiy yuklatilishi mumkin emas.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki unda belgilangan tartibda xo`jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida davlatga qarashli mol-mulkka ega bo`lgan

yuridik shaxslarga bu mulkni sug`urtalash majburiyati yuklanishi mumkin.

## 1.2.2-diagramma

### «Kafolat» DASK AJ 2014 yil yakunlari bo`yicha sug`urta mokofoti



Majburiy sug`urta bunday sug`urta qilish majburiyati yuklangan shaxs (sug`urta qildiruvchi) sug`urtalovchi bilan sug`urta shartnomasi tuzishi vositasida amalga oshiriladi. Majburiy sug`urta sug`urta qildiruvchi hisobidan amalga oshiriladi, yo`lovchilarni majburiy sug`urtalash bundan mustasno bo`lib, bu sug`urta qonunda nazarda tutilgan hollarda ularning o`z hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Majburiy sug`urtalanishi lozim bo`lgan ob`ektlar, ular sug`urtalanishga sabab bo`ladigan xavflar va sug`urta pulining eng kam miqdorlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Majburiy va ixtiyoriy sug`urta mokofotlari «Kafolat» DASK AJning 2014 yil yakunlari bo`yicha ma`lumotlari asosida quyidagi jadval va diagrammada da ko`rsatilgan (1.2.3-jadval va diagramma).

Naf oluvchi foydasiga sug`urta shartnomasi tuzish, shu jumladan u sug`urtalangan shaxs bo`lganda ham, sug`urta qildiruvchini, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan yoxud sug`urta qildiruvchining zimmasidagi majburiyatlar foydasiga shartnoma tuzilgan shaxs tomonidan bajarilmagan bo`lsa,

ushbu shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

### 1.2.3-jadval

#### «Kafolat» DASK AJ 2014 yil yakunlari bo`yicha majburiy va ixtiyoriy sug`urta mukofotlari (foiz)


Филиал	Мажбурий суғурта	Ихтиёрий суғурта
Қорақалпоғистон Р.	55,2	44,8
Андижон	57,0	43,0
Бухоро	64,5	35,5
Жиззах	58,9	41,1
Қашқадарё	52,7	47,3
Навоий	54,6	45,4
Наманган	59,9	40,1
Самарқанд	57,8	42,2
Сурхондарё	57,0	43,0
Сирдарё	65,8	34,2
Тошкент вилояти	57,7	42,3
Фарғона	67,3	32,7
<b>Хоразм</b>	<b>34,3</b>	<b>65,7</b>
Тошкент шаҳар	80,6	19,4
Андеррайтинг М.	67,5	32,5

Naf oluvchi mulkiy sug`urta shartnomasi bo`yicha sug`urta tovonini yoxud shaxsiy sug`urta shartnomasi bo`yicha sug`urta pulini to`lashni talab qilganida sug`urtalovchi undan, shu jumladan sug`urtalangan shaxs naf oluvchi bo`lgan taqdirda ham, sug`urta shartnomasi bo`yicha majburiyatlarni, shu bilan birga sug`urta qildiruvchining zimmasida bo`lgan, lekin u bajarmagan majburiyatlarni bajarishni talab qilishga haqli. Ilgari bajarilishi lozim bo`lgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki o`z vaqtida bajarmaslik oqibatlari xavfi naf oluvchining zimmasida bo`ladi. Sug`urta shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim. Bu talabga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo`ladi. Sug`urta shartnomasi bitta hujjatni tuzish yoxud sug`urtalovchi tomonidan sug`urta qildiruvchiga uning yozma yoki og`zaki arizasiga binoan sug`urtalovchi imzolagan, sug`urta shartnomasining shartlarini o`z ichiga olgan sug`urta polisi (shahodatnomasi, sertifikat, kvitantsiyasi)ni topshirish yo`li bilan tuzilishi

mumkin. Bu holda sug`urta qildiruvchining sug`urtalovchi taklif etgan shartlarda shartnoma tuzishga rozi ekanligi sug`urtalovchidan ko`rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olish va sug`urta mukofoti to`lash yoxud – sug`urta mukofoti bo`lib-bo`lib to`langanda – birinchi badalni to`lash orqali tasdiqlanadi. Sug`urtalovchi shartnoma tuzish chog`ida sug`urtaning alohida turlari bo`yicha sug`urta shartnomasi (sug`urta polisi)ning o`zi ishlab chiqqan standart shakllarini qo`llanishga haqli.

### 1.2.3-diagramma

#### «Kafolat» DASK AJ 2014 yil yakunlari bo`yicha majburiy va ixtiyoriy sug`urta mukofotlari (foiz)



Bir turdagi mol-mulk (tovarlar, yuklar va hokazoning) turli turkumlarini muayyan muddat davomida bir xildagi shartlarda muntazam sug`urtalash sug`urta qildiruvchining sug`urtalovchi bilan kelishuviga binoan bitta sug`urta shartnomasi – bosh polis asosida amalga oshirilishi mumkin. Sug`urta qildiruvchi bosh polisning ta`sir doirasida bo`ladigan mol-mulkning har bir turkumi to`g`risida sug`urtalovchiga bunday polisdagi shartlashilgan ma`lumotlarni unda nazarda tutilgan muddatda, agar muddat nazarda tutilmagan bo`lsa - ular olinganidan keyin



darhol xabar qilishi shart. Agar hatto bunday ma'lumotlarni olish paytigacha sug'urtalovchi to'lashi lozim bo'lgan zarar ko'rish ehtimoli o'tib ketgan bo'lsa ham, sug'urta qildiruvchi bu majburiyatdan ozod bo'lmaydi.

Sug'urta qildiruvchining talabiga binoan sug'urtalovchi bosh polisning ta'sir doirasida bo'ladigan mol-mulkning alohida turkumlari bo'yicha sug'urta polislarini berishi shart. Sug'urta polisining mazmuni bosh polisga nomuvofiq bo'lgan taqdirda, sug'urta polisi afzal ko'riladi. Mulkiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urta ob'ekti bo'lgan muayyan mol-mulk yoxud boshqa mulkiy manfaat to'g'risida;

- yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi)ning xususiyati to'g'risida;

- sug'urta puli miqdori to'g'risida;

- sug'urta to'voni miqdorini aniqlash tartibi to'g'risida, agar shartnomada uni sug'urta pulidan oz miqdorda to'lash mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa;

- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;

- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urtalangan shaxs to'g'risida;

- sug'urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi)ning xususiyati to'g'risida;

- sug'urta puli miqdori to'g'risida;

- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;

- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Taraflarning kelishuviga binoan shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi

mumkin. Agar sug`urta shartnomasi sug`urta qildiruvchi, sug`urtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fuqaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarni o`z ichiga olsa, shartnomaning ana shu shartlari o`rniga qonun hujjatlarining tegishli qoidalari qo`llaniladi.

Sug`urta shartnomasini tuzish shartlari sug`urtalovchi yoxud sug`urtalovchilar birlashmasi tomonidan qabul qilingan, ma`qullangan yoki tasdiqlangan tegishli turdagi sug`urtaning standart qoidalari (sug`urta qoidalari)da belgilab qo`yilishi mumkin.

Sug`urta qoidalarida mavjud bo`lgan va sug`urta shartnomasi (polisi) matniga kiritilmagan shartlar, agar shartnomada (polisda) shunday qoidalar qo`llanilishi to`g`ridan-to`g`ri ko`rsatilgan va qoidalarning o`zi shartnoma (polis) bilan bitta hujjatda yoki uning orqa tomonida bayon qilingan yoxud unga ilova qilingan bo`lsa, sug`urta qiluvchi (naf oluvchi) uchun majburiydir. Ilova qilingan taqdirda, shartnomani tuzish paytida sug`urta qildiruvchiga sug`urta qoidalari topshirilgani shartnomada yozuv bilan tasdiqlab qo`yilishi lozim.

Sug`urta shartnomasi tuzilayotganda sug`urta qildiruvchi va sug`urtalovchi sug`urta qoidalarining ayrim bandlarini o`zgartirish yoki chiqarib tashlash va qoidalarda bo`lmagan bandlarni shartnomaga kiritish to`g`risida kelishishlari mumkin. Sug`urta qildiruvchi (naf oluvchi) o`z manfaatlarini himoya qilib, sug`urta shartnomasida (polisida) ko`rsatib o`tilgan tegishli turdagi sug`urta qoidalarini, hatto agar bu qoidalar ushbu moddaga ko`ra uning uchun majburiy bo`lmasa ham, vaj qilib keltirishga haqli.

Sug`urta shartnomasi tuzilayotganda sug`urta qildiruvchi o`ziga ma`lum bo`lib, sug`urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (sug`urta xavfi)ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo`lgan holatlarni sug`urtalovchiga xabar qilishi shart.

Sug`urta shartnomasi (polisi)ning standart shaklida, sug`urta qildiruvchiga berilgan sug`urta qoidalarida yoki yozma so`rovda sug`urtalovchi tomonidan oldindan aniq aytib qo`yilgan holatlar muhim deb hisoblanadi. Agar sug`urta

shartnomasi sug`urtalovchining qandaydir savollariga sug`urta qildiruvchining javoblari bo`lmagan holda tuzilgan bo`lsa, sug`urtalovchi tegishli holatlar sug`urta qildiruvchi tomonidan ma`lum qilinmaganligiga asoslanib keyinchalik shartnomani bekor qilishni yoxud uni haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

Agar sug`urta shartnomasi tuzilganidan keyin, ushbu moddaning birinchi qismida ko`rsatilgan holatlar to`g`risida sug`urta qildiruvchi sug`urtalovchiga bila turib yolg`on ma`lumot berganligi aniqlansa, sug`urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni talab qilishga haqli. Agar sug`urta qildiruvchi aytib qo`ymagan holatlar o`tib ketgan bo`lsa, sug`urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

Mol-mulkni sug`urtalash shartnomasi tuzilayotganida sug`urtalovchi sug`urta qilinayotgan mol-mulkni ko`zdan kechirishga, zarurat bo`lganda esa uning haqiqiy qiymatini belgilash maqsadida baholashdan o`tkazishni tashkil etishga haqli. Shaxsiy sug`urta shartnomasi tuzilayotganida sug`urtalovchi sug`urta qilinayotgan shaxs sog`lig`ining haqiqiy holatini aniqlash uchun uni tekshirtirishga haqli. Sug`urtalovchi tomonidan sug`urta xavfini baholash boshqa holatni isbotlashga haqli bo`lgan sug`urta qildiruvchi uchun majburiy emas.

Sug`urtalovchi sug`urta qildiruvchi, sug`urtalangan shaxs va naf oluvchi, ularning sog`lig`ining holati to`g`risidagi, shuningdek bu shaxslarning mulkiy ahvoli to`g`risidagi o`z kasb faoliyati natijasida o`zi olgan ma`lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Mulkiy sug`urta shartnomasi bo`yicha sug`urtalovchi sug`urta tovonini to`lash majburiyatini oladigan yoki shaxsiy sug`urta shartnomasi bo`yicha to`lash majburiyatini oladigan summa (sug`urta puli) sug`urta qildiruvchining sug`urtalovchi bilan kelishuviga ko`ra ushbu modda qoidalariga muvofiq belgilanadi. Mol-mulkni yoki tadbirkorlik xavfini sug`urta qilishda, agar sug`urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo`lsa, sug`urta puli ularning haqiqiy qiymatidan (sug`urta qiymatidan) oshmasligi lozim, quyidagilar shular jumlasiga kiradi:

- mol-mulk uchun – uning sug`urta shartnomasini tuzish kuni turgan joyidagi haqiqiy qiymati;

- tadbirkorlik xavfi – sug`urta hodisasi yuz berganida sug`urta qildiruvchi tadbirkorlik faoliyatidan ko`rishi mumkin bo`lgan zarar.

Shaxsiy sug`urta shartnomalarida va fuqaroviy javobgarlikni sug`urtalash shartnomalarida sug`urta pulini taraflar o`z ixtiyorlariga ko`ra aniqlaydilar, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Sug`urta shartnomasini tuzish paytida taraflarning kelishuviga ko`ra aniqlanadigan, sug`urta manfaati bilan bog`lanadigan mol-mulk qiymati, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo`lsa, sug`urta qiymati (sug`urta bahosi) deb hisoblanadi.

Mol-mulkning shartnomada ko`rsatilgan sug`urta qiymati ustida keyinchalik nizolashish mumkin emas, shartnoma tuzilgunga qadar sug`urta xavfini baholash bo`yicha o`z huquqidan foydalanmagan sug`urtalovchi bu qiymat borasida bila turib chalg`itilgan hol bundan mustasno. Agar mol-mulkni yoki tadbirkorlik xavfini sug`urtalash shartnomasida sug`urta puli sug`urta qiymatidan kam qilib belgilangan bo`lsa, sug`urtalovchi sug`urta hodisasi yuz berganida sug`urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) u ko`rgan zararni sug`urta pulining sug`urta qiymatiga bo`lgan nisbatiga mutanosib ravishda qoplashi shart. Agar mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfi faqat sug`urta qiymatining bir qismi miqdorida sug`urtalangan bo`lsa, sug`urta qildiruvchi (naf oluvchi) qo`shimcha sug`urta qilishga, shu jumladan boshqa sug`urtalovchida sug`urta qilishga haqli, ammo barcha sug`urta shartnomalari bo`yicha umumiy sug`urta puli sug`urta qiymatidan oshib ketmasligi lozim. Agar sug`urta shartnomasida ko`rsatilgan mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfining sug`urta puli sug`urta qiymatidan ortiq bo`lsa, shartnoma sug`urta pulining sug`urta qiymatidan ortiq bo`lgan qismida o`z-o`zidan haqiqiy bo`lmaydi. Bu holda sug`urta mukofotining ortiqcha to`langan qismi qaytarib berilmaydi. Agar sug`urta shartnomasiga muvofiq sug`urta mukofoti bo`lib-bo`lib to`lansa va ushbu moddaning birinchi qismida ko`rsatilgan holatlar aniqlangan

paytgacha uning hammasi to'lanmagan bo'lsa, qolgan sug'urta badallari sug'urta puli miqdorini kamaytirishga mutanosib tarzda kamaytirilgan miqdorda to'lanishi lozim. Agar sug'urta shartnomasidagi sug'urta pulini oshirib yuborish sug'urta qildiruvchi tomonidan aldashning oqibati bo'lsa, sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni va o'ziga etkazilgan zarar uning sug'urta qildiruvchidan olgan sug'urta puli summasidan ortiq miqdorda qoplanishini talab qilishga haqli.

Mol-mulk yoki tadbirkorlik xavfi qo'shaloq sug'urta qilinganda har bir sug'urtalovchi sug'urta tovonini o'zi tuzgan shartnoma doirasida to'lashga majbur bo'ladi, biroq barcha sug'urtalovchilardan olingan sug'urta tovonlarining umumiy summasi haqiqiy zarardan ortiq bo'lishi mumkin emas. Bunda sug'urta qildiruvchi sug'urta tovonini istalgan sug'urtalovchidan u bilan tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan sug'urta puli doirasida olishga haqli. Olingan sug'urta tovonini haqiqiy zararni qoplamagan taqdirda, sug'urta qildiruvchi etishmayotgan summani boshqa sug'urtalovchidan olishga haqli. Etkazilgan zarar boshqa sug'urtalovchilar tomonidan qoplangani sababli sug'urta tovonini to'lashdan to'liq yoki qisman ozod qilingan sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchiga sug'urta to'lovlarining tegishli qismini qilingan xarajatlarni chegirgan holda qaytarishi shart.

Mol-mulk va tadbirkorlik xavfi turli xildagi sug'urta xavflaridan xoh bitta, xoh alohida sug'urta shartnomalari bo'yicha, shu jumladan turli sug'urtalovchilar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta qilinishi mumkin. Bunday hollarda barcha shartnomalar bo'yicha umumiy sug'urta puli miqdori sug'urta qiymatidan oshib ketishiga yo'l qo'yiladi. Sug'urta ob'ekti bitta shartnoma bo'yicha bir necha sug'urtalovchi tomonidan o'rtada sug'urtalanishi mumkin. Agar bunday shartnomada sug'urtalovchilardan har birining huquq va majburiyatlari belgilanmagan bo'lsa, ular mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini yoki shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulini to'lash uchun sug'urta qildiruvchi oldida solidar javobgar bo'ladilar. Yirik va alohida yirik xavflarni o'rtada sug'urta qilish uchun birgalikda sug'urtalovchilar birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma asosida oddiy shirkatlar tuzishlari mumkin. Birgalikda

sug`urtalovchilar o`rtasida tegishli kelishuv bo`lgan taqdirda, ulardan biri sug`urta qildiruvchining oldida faqat o`z ulushi uchun javobgar bo`lib qolgani holda, u bilan o`zaro munosabatlarda barcha birgalikdagi sug`urtalovchilar nomidan vakil bo`lishi mumkin. Sug`urta mukofoti deganda sug`urta qildiruvchi sug`urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda sug`urtalovchiga to`lashi shart bo`lgan sug`urta haqi tushuniladi.

Sug`urtalovchi sug`urta shartnomasi bo`yicha to`lanishi lozim bo`lgan sug`urta mukofoti miqdorini belgilashda sug`urta ob`ekti va sug`urta xavfi xususiyati hisobga olingan holda o`zi tomonidan ishlab chiqilgan, sug`urta puli birligidan undiriladigan mukofotni aniqlaydigan sug`urta tariflarini qo`llashga haqli. Quyidagi jadvalda sug`urta turlari bo`yicha sug`urta mukofotlari dinamikasi «Kafolat» DASK AJning 2014 yil yakunlari bo`yicha ma`lumotlari asosida jadval va diagrammada da ko`rsatilgan (1.2.4-jadval va diagramma).


#### 1.2.4-jadval

##### «Kafolat» DASK AJ Xorazm filialida 2010-2014 yillardagi sug`urta turlari bo`yichsa sug`urta mukofotlari o`sih dinamikasi (ming so`mda)

<b>Хоразм</b>	<b>2010</b>	<b>2011</b>	<b>2012</b>	<b>2013</b>	<b>2014</b>
<b>ТВЭФЖМС</b>	<b>114 930,1</b>	<b>111 267,0</b>	<b>122 632,9</b>	<b>188 898,4</b>	<b>219 312,4</b>
<b>ИБФЖМС</b>	<b>8 772,9</b>	<b>13 594,0</b>	<b>18 271,5</b>	<b>38 045,6</b>	<b>47 877,7</b>
<b>Бошқа мажбурий суғурта</b>	<b>1 100,0</b>	<b>600,0</b>	<b>9 072,1</b>	<b>29 968,2</b>	<b>56 697,8</b>
<b>Мол-мулк</b>	<b>61 141,5</b>	<b>77 729,7</b>	<b>170 882,9</b>	<b>354 229,3</b>	<b>480 548,8</b>
<b>Шахсий суғурта</b>	<b>38 366,0</b>	<b>14 332,4</b>	<b>38 115,8</b>	<b>63 015,3</b>	<b>62 690,3</b>
<b>Жавобгарлик суғуртаси</b>	<b>0,0</b>	<b>750,0</b>	<b>728,8</b>	<b>564,6</b>	<b>776,1</b>

Qonunda nazarda tutilgan hollarda sug`urta mukofotining miqdori davlat sug`urta nazorati organlari tomonidan joriy etilgan yoki tartibga solinadigan sug`urta tariflariga muvofiq belgilanadi. Agar sug`urta shartnomasida sug`urta mukofotini bo`lib-bo`lib to`lash nazarda tutilgan bo`lsa, shartnomada navbatdagi sug`urta badallarini belgilangan muddatlarda to`lamaslik oqibatlari ko`rsatib qo`yilishi mumkin. Agar sug`urta hodisasi to`lash muddati o`tkazib yuborilgan navbatdagi sug`urta badali to`lanishidan oldin yuz bergan bo`lsa, sug`urtalovchi mulkiy sug`urta shartnomasi bo`yicha to`lanishi lozim bo`lgan sug`urta tovonni yoki shaxsiy sug`urta shartnomasi bo`yicha sug`urta puli miqdorini sug`urta mukofotining o`ziga to`langan qismiga mutanosib summada cheklashga va muddati o`tkazib yuborilgan sug`urta badali summasini hisobga olishga haqli.

**1.2.4-diagramma**  
**«Kafolat» DASK AJ Xorazm filialida 2010-2014 yillardagi sug`urta turlari bo`yicha sug`urta mukofotlari o`sih dinamikasi (ming so`mda)**



Mol-mulkni sug`urtalash shartnomasini tuzgan sug`urta qildiruvchi vafot etgan taqdirda, sug`urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari bu mol-mulkni meros tartibida qabul qilib olgan shaxsga o`tdi. Mulk huquqi o`tishining boshqa hollarida sug`urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari, agar shartnomada yoki qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilanmagan bo`lsa, sug`urtalovchining roziligi bilan yangi mulkdorga o`tdi (1.2.5-jadval).

**1.2.5-jadval.**  
**Sug`urta tashkiloti harajatlarining turlari va ularning tasniflanishi<sup>4</sup>**

№	Harajat turlari	Harajatlarning tasnifi		
		Asosiy faoliyat bo`yicha	Maqsadli faoliyat bo`yicha	Amalga oshirilish vaqtiga ko`ra
1	Ma`muriy-xo`jalik yuritish harajatlari	Sug`urtalash bilan to`g`-ridan-to`g`ri bog`liq bo`lmagan harajatlar	Shartnomani amalga oshirish harajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
2	Vositachilik taqdirlashlarini undirish harajatlari	Sug`urta operatsiyalarini amalga oshirish harajatlari	Shartnomani tayyorlash va tuzish harajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
3	Reklama va marketing xizmati harajatlari	Sug`urtalash bilan to`g`-ridan-to`g`ri bog`liq bo`lmagan harajatlar	Shartnomani tayyorlash va tuzish harajatlari	Shartnomani tuzishga qadar
4	Maxsus ish qo`g`ozlarini tayyorlash harajatlari	Sug`urta operatsiyalarini amalga oshirish harajatlari	Shartnomani tayyorlash va tuzish harajatlari	Shartnomani tuzishga qadar
5	Sug`urta zaxiralariga ajratmalar	Sug`urta operatsiyalarini amalga oshirish harajatlari	Shartnomani bajarish harajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
6	Qayta sug`urtalash harajatlari	Sug`urta operatsiyalarini amalga oshirish harajatlari	Shartnomani bajarish harajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
7	Investitsiya joylashtiriluvchi harajatlari	Sug`urtalash bilan to`g`-ridan-to`g`ri bog`liq bo`lmagan harajatlar	Shartnomani bajarish harajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
8	Sug`urta qoplamasi harajatlari	Sug`urta operatsiyalarini amalga oshirish harajatlari	Shartnomani bajarish harajatlari	Sug`urta hodisasi yuz berganda

<sup>4</sup> «Теория и практика страхования». под ред. Турбиной К.Е. Учебное пособие. М.: «Анкил». 2003. стр. 68.



Mulkiy sug`urta shartnomasining amal qilish davrida sug`urta qildiruvchi shartnoma tuzilayotganda sug`urtalovchiga ma`lum qilingan holatlarda yuz bergan, o`ziga ma`lum bo`lgan muhim o`zgarishlar to`g`risida, agar bu o`zgarishlar sug`urta xavfi ortishiga jiddiy ta`sir ko`rsatishi mumkin bo`lsa, sug`urtalovchiga darhol xabar qilishi shart. Sug`urta shartnomasida va sug`urta qildiruvchiga berilgan sug`urta qoidalarida aytib qo`yilgan o`zgarishlar muhim deb hisoblanadi.

Sug`urtalangan mol-mulkka bo`lgan huquqlar o`ziga o`tgan shaxs bu haqda sug`urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi lozim. Mulkiy sug`urta shartnomasi bo`yicha sug`urta qildiruvchi sug`urta hodisasi yuz bergani o`ziga ma`lum bo`lganidan keyin bu haqda darhol sug`urtalovchini yoki uning vakilini xabardor qilishi shart. Agar shartnomada xabar qilish muddati va (yoki) usuli nazarda tutilgan bo`lsa, bu shartlashilgan muddatda va shartnomada ko`rsatilgan usulda qilinishi lozim. Agar naf oluvchi o`zining foydasiga tuzilgan shartnoma bo`yicha sug`urta tovoniga bo`lgan huquqdan foydalanish niyatida bo`lsa, ayni shunday majburiyat naf oluvchi zimmasida bo`ladi.

Mulkiy sug`urta shartnomasida nazarda tutilgan sug`urta hodisasi yuz berganida, sug`urta qildiruvchi ehtimol tutilgan zararni kamaytirish uchun oqilona va mumkin bo`lgan choralarni ko`rishi shart. Sug`urta qildiruvchi bunday choralarni ko`rar ekan, agar o`ziga ma`lum qilingan bo`lsa, sug`urtalovchining ko`rsatmalariga amal qilishi lozim.

Agar mulkiy sug`urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo`lsa, sug`urtalovchi sug`urtalangan mol-mulk davlat organlarining farmoyishi bilan olib qo`yilishi, musodara qilinishi, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo`q qilib tashlanishi oqibatida ko`rilgan zarar uchun sug`urta tovonini to`lashdan ozod qilinadi.

Sug`urtalovchi mulkiy sug`urta shartnomasi bo`yicha sug`urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) sug`urta tovonini yoki shaxsiy sug`urta shartnomasi bo`yicha sug`urta pulini to`lashni quyidagi hollarda rad etishga haqli:

Sug`urta tashkiloti harajatlarning turlari va ularning tasniflanishi<sup>5</sup>

№	Harajat turlari	Harajatlarning tasnifi		
		Asosiy faoliyat bo'yicha	Maqsadli faoliyat bo'yicha	Amalga oshirilish vaqtiga ko'ra
1	Ma'muriy-xo'jalik yuritish harajatlari	Sug`urtalash bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan harajatlari	Shartnomani amalga oshirish harajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
2	Vositachilik taqdirlashlarini undirish harajatlari	Sug`urta operatsiyalarini amalga oshirish harajatlari	Shartnomani tayyorlash va tuzish harajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
3	Reklama va marketing xizmati harajatlari	Sug`urtalash bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan harajatlari	Shartnomani tayyorlash va tuzish harajatlari	Shartnomani tuzishga qadar
4	Maxsus ish qo'g'ozlarini tayyorlash harajatlari	Sug`urta operatsiyalarini amalga oshirish harajatlari	Shartnomani tayyorlash va tuzish harajatlari	Shartnomani tuzishga qadar
5	Sug`urta zaxiralariga ajratmalar	Sug`urta operatsiyalarini amalga oshirish harajatlari	Shartnomani bajarish harajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
6	Qayta sug`urtalash harajatlari	Sug`urta operatsiyalarini amalga oshirish harajatlari	Shartnomani bajarish harajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
7	Investitsiya joylashtiriluvchi harajatlari	Sug`urtalash bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan harajatlari	Shartnomani bajarish harajatlari	Shartnomani amalga oshirish jarayonida
8	Sug`urta qoplamasi harajatlari	Sug`urta operatsiyalarini amalga oshirish harajatlari	Shartnomani bajarish harajatlari	Sug`urta hodisasi yuz berganda

Agar mulkiy sug`urta shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug`urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning sug`urta natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida sug`urta tovonini to'lagan sug`urtalovchiga o'tadi. Biroq shartnomaning bila turib zarar etkazgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqi sug`urtalovchiga o'tishini istisno

<sup>5</sup> под ред. Турбиной К.Е. «Теория и практика страхования». Учебное пособие. М.: «Анкил». 2003. стр. 68.

qiladigan shartlari o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

Mol-mulk sug'urta qilinganda sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin sug'urtalovchining roziligi bilan sug'urtalangan mol-mulkka bo'lgan o'z huquqlarini unga o'tkazishi va sug'urta tovonini sug'urta pulining to'liq hajmida olishi mumkin.

### **1.3. Mol-mulkni sug'urta qilish tartibi**

Mulk tushunchasi keng va ko'p qirrali tushuncha. Mulk ob'ektlariga:

- er;
- er osti boyliklari;
- o'simlik va hayvonot dunyosi;
- oqar suvlar;
- imorat va inshootlar;
- asbob va uskunalari;
- moddiy va madaniy yodgorliklar va boshqalar kiradi.

Respublikamizda mulkchilik munosabatlari «O'zbekiston Respublikasining mulkchilik to'g'risidagi qonun» asosida tartibga solinadi. Mulk huquqiy va jismoniy shaxslar egalik qiladigan moddiy ne'matlar, boyliklardir.

Mulk ob'ektlariga turli xo'jalik tashkilotlari va uyushmalari, shu hisobda davlat korxonalari jamoalari va jamoat tashkilotlari, kooperativ, fuqarolarga tegishli mulklar, qo'shma korxonalar, ajnabiy yuridik va jismoniy shaxslar va boshqalarning mulklari kiradi.

Ko'rsatilgan mulk shaxslarni mulk egalari orqali sug'urtalash mulkiy sug'urta deb ataladi. Mulkiy sug'urta Davlat va xususiy sug'urta tashkilotlari sug'urta tizimida etakchi o'rinni egallaydi. Mulk sug'urtasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, mulk sug'urtasi bo'yicha davlat hissadorlik va xususiy sug'urta tashkilotlarining sug'urtalash usullari va shartlari bir xil emas, bir-biridan farq qiladi.

Ikkinchidan, sanoat, qurilish, transport, savdo va boshqa korxonlarni sug`urtalash ob`ektlari va usullarida farq qiladi. Fukarolar mulklarini sug`urtalash yuridik shaxslar mulklaridan farq qilgani kabi ular ham o`z xususiyatlariga egadir.

Uchinchidan, mulk sug`urtasida fuqarolarning hayoti emas, balki ular egalik qilgan mulklar sug`urta qilinadi, bu jihatdan mulkiy sug`urta tashkilotlari faqat ixtiyoriy sug`urta bilan shug`ullanadilar.

To`rtinchidan, davlat hissadorlik sug`urta tashkilotlari mol-mulkniham majburiy, ham ixtiyoriy asosda sug`urta qiladilar, xususiy sug`urta tashkilotlari faqat ixtiyoriy sug`urta bilan shug`ullanadilar.

Beshinchidan, xususiy sug`urta tashkilotlarining sug`urta usullari, ob`ektlari, tariflari, qoplamalari hamma xususiy tashkilotlar uchun bir xil emas, shuningdek, davlat sug`urta tashkilotlarida o`ziga xos usullar, tariflar ham qo`llaniladi.

Oltinchidan, mulkni faqat mulk egasi emas, balki ijaraga olgan shaxs ham sug`urta qilishi mumkin.

Ettinchidan, transport vositalarining fuqarolik javobgarligi sug`urtasi faqatgina mulk sug`urtasi emas, balki shaxsiy sug`urtaga ham asoslanadi.

Asosiy fondlar aylanma fondlardan shu bilan farq qiladiki, ular korxonalar moddiy asosi sifatida, aylanma fondlarga o`xshab bir yil emas, balki uzoq yillar davomida ishlab chiqarishgaxizmat qiladilar. Asosiy fondlarga:

- binolar;
- inshootlar;
- mashinalar;
- transport vositalari va boshqa uskunalar kiradi.

Bular korxonalar ishlab chiqarishining asosiy fondlaridir. Turar joylar, madaniy-maishiy tadbirlarga xizmat qiluvchi binolar, noishlab chiqarish asosiy fondlardir. Aylanma fondlar, ya`ni xom ashyo, materiallar, yonilg`i, tovarlar va boshqalar ishlab chiqarish fondlari tarkibiga kirsa-da, ular bir ishlab chiqarish jaryonida iste`mol qilinadi. Asosiy va aylanma fondlar korxonalar ishlabchiqarishi, ilmiy-texnika va ijtimoiy faoliyatning tayanchi hisoblanadi. Bu fondlarga

etkazilgan zararlar korxonaning umumiy faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin. shu sababdan bu fondlarning sug'urtalanishi alohida ahamiyatga egadir.

Asosiy fondlar korxonalar balansida dastlabki qiymatlariga ko'ra hisobga olinadi. Lekin ishlab chiqarish jarayonida bu fondlar ularning dastlabki qiymatlarini yo'qotib, ular takror hisoblab turiladi. Asosiy fondlarning dastlabki qiymatlari ular qiymatining asosi hisoblanib, sug'urta davomida ularning eskirgan qismiga ham e'tibor beriladi. Aylanma fondlar uchun eskirgan qismi degan utshuncha yo'q, shuning uchun aylanma fondlar, shuningdek muomala fondlari to'la balans hisobida hisob-kitob qilinadi. Tarif stavkalari asosiy fondlarning qiymatiga nisbatan quyidagi yo'nalishlarda tarmoqlashtiriladi:

- a) sanoat va boshqa xo'jalik tarmoqlari;
- b) sug'urta hodisalari bo'yicha tarmoqlar;
- v) mol-mulkning to'la yoki qisman sug'urtalanishi bo'yicha tarmoqlar;
- g) mol-mulkning bir necha sug'urta hodisalaridan sug'urtalanishi bo'yicha tarmoqlar;

Sanoat tarmoqlari tarif jihatidan uch guruhga bo'linadi:

1. neft va kimyo, metallurgiya;
2. tog' sanoati, atom energiyasi;
3. mashinasozlik, qurilish, oziq-ovqat sanoati kiradi.

Stavkalar tarmoq xillari bo'yicha 0,2-0,15 % ga tarmoqlanadi.

Yong'inga qarshi sug'urtalanganda yana 1% qo'shiladi. Transport vositalari bo'yicha tarif stavkasi 2 %, har bir qo'shimcha sug'urta hodisasi uchun 0,5 %. Bu stavkalar asosiy va aylanma fondlarning qiymatiga nisbatan qo'llanib sug'urta to'lovlarining miqdori belgilanadi.

Sug'urta shartnomalari bir yilga va bir necha yilga tuzilishi mumkin. Shartnoma sug'urta to'lovining bir qismi yoki hammasi to'langandan keyin rasmiylashtiriladi. Agar shartnomada ko'rsatilgan birinchi muddatda umumiy sug'urta to'lovining yarmidan kami o'tkazilgan bo'lsa, sug'urta shartnomasi kuchga kirmaydi. Shartnoma franshiza miqdori ham ko'rsatiladi. Sug'urta

shartnomasining amal qilishi sug`urta to`lovining to`langan miqdoriga bog`liq.

Agar sug`urta to`lovining:

50-60 foizi to`lansa – 6 oy muddatda

60-70 foizi to`lansa – 7 oy muddatda

70-80 foizi to`lansa – 8 oy muddatda

80-90 foizi to`lansa – 9 oy muddatda

90-95 foizi to`lansa – 10 oy muddatda amal qiladi.

Sug`urtaning bu turi bo`yicha davlat qo`shma kichik korxonalar, tijorat kompaniyalari, hisshadorlik jamiyatlari, kooperativ va jamoa tashkilotlarining mol-mulklari xitoyoriy ravishda sug`urta qilinadi. Sug`urtalashda quyidagi baholar qo`llaniladi:

- binolar, inshootlar, uzatuvchi moslamalar, mashinalar, uskunalar to`la balans bahosi miqdorida;

- tovar-moddiy materiallar va sotib olingan materiallar haqiqiy bahodan tannarx hisobidan;

- qishloq xo`jalik mahsulotlari o`z haqiqiy tannarxi hisobidan;

- tugallanmagan kapital qo`yilmalar haqiqiy sarflagan xarajatlar miqdorida;

- ko`rgazma eksponatlari, kolleksiyalar, mualliflarning ijodiy mahsulotlari – hujjatlarda tegishli ko`rsatilgan baholarda.

Quyidagi diagrammada va grafikda «Kafolat» DASK AJning 2014 yil yakunlari bo`yicha ma`lumotlari asosida majburiy va ixtiyoriy sug`urta turlari ulushi va shartnomalar soni ko`rsatilgan (1.3.1-diagramma va grafik).

Ko`rsatilgan mol-mulk quyidagi hodisalar natijasida yo`q bo`lib ketish va shikastlanishdan sug`urtalanadilar:

a) umumiy keng tarqalgan favqulodda tabiiy hodisalardan;

b) suv toshqini, kuchli shamol, er qimirlashi, chaqmoq urishi, emirilish, haroratning ko`tarilishi, bo`ron va boshqalar;


d) yong`in xavfidan;

e) isitish tizimi, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlarining buzilishi;

- f) radioaktiv ta'sir;
- j) o'g'irlik, shu hisobda transport vositalarini olib qochish;
- h) uchinchi shaxs tomonidan qasddan etkazilgan zararlar.

**1.3.1-diagramma**

**«Kafolat» DASK AJ Xorazm filialida 2010-2014 yillardagi majburiy va ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha ulushi (foiz)**




Bundan tashqari baliq ovlash kemalari ham dengiz hodisalari natijasida shikastlanishdan sug'urta qilinadilar. Sug'urta hodisasi sodir bo'lgandan keyin sug'urtalangan korxonaga buhaqda uch kun muddatda sug'urta tashkilotiga ma'lum qilishi kerak. Maxsus tuzilgan komissiya ko'rilgan zarar miqdorini aniqlashga kirishadi va dalolatnoma tuzadi. Dalolatnoma tuzilganda zarar qiymatini shartnomadagi sug'urta summasidan ortib ketmasligiga e'tibor beriladi. Shikastlangan mol-mulkning bir qismini saqlab qolish bilan bog'langan xarajatlar zarar miqdorining umumiy summasiga qo'shiladi. Ko'rilgan zararining hisob-kitobi o'n kun davomida aniqlanadi. Sug'urta qoplamlari akt tuzilgandan boshlab yigirma kun ichida korxonaga to'lanadi. Qoplama to'lashda sug'urta tashkiloti

kechikkan har bir kun uchun 0, 05% bo`nak to`laydi. Agar zararlangan mol-mulkning umumiy qoplama miqdori o`n kun ichda hisob-kitob qilinmasa, u holda dastlabki hisob-kitoblarga nisbatan vaqtincha 60% qoplama to`lanadi.

1.3.1-grafik

**«Kafolat» DASK AJ Xorazm filialida 2010-2014 yillardagi majburiy va ixtiyoriy sug`urta turlari bo`yicha shartnomalar soni o`sh dinamikasi**



Favqulodda zarar sug`urta va o`t o`chirish tashkilotlari o`z vazifalarini bajarmaganligi natijasida sodir bo`lgan bo`lsa, u holda sug`urta qoplaamsi 30%ga kamaytiriladi. Sug`urta tashkilotlari sug`urtalanuvchilarga bu qoidalarni tushuntirishlari mol-mulkning qanday saqlanayotgani haqida muttasil boshqa tashkilotl bilan birga kuzatib, tekshirib borishlari, mol-mulkka zarar etganda o`z vaqtida komissiya tuzib, sug`urta hodisais sabablarini aniqlashi va o`z vaqtida sug`urta to`lovlariin jabrlangan korxonaga ixtiyoriga o`tkazishlari kerak. Sug`urta qoplamalarini hisoblaganda korxonalarining o`ziga xos xususiyatlariga bog`liq bo`lgan sabablar tufayli zararlarning miqdori bir xil bo`lmasligi mumkin. Shu boisdan zarar miqdorini aniqlanganda zararlanmasdan saqlanib qolingan mol-



mulkning miqdorini hisoblab, bu summaga zararining umumiy miqdori kamaytirilishi kerak. Shaxsiy sug`urta – baxtsiz hodisalar yoxud tabiiy hodisalar ro`y berishi oqibatida fuqarolarning hayoti va sog`ligiga shikast yetkazilishi bilan bog`liq ularning mulkiy manfaatlarini himoyalashga qaratilgan sug`urtaning mustaqil tarmog`i. Shaxsiy sug`urta fuqarolar boshiga kulfat tushganda ularni moddiy jihatdan qo`llab-quvvatlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Shaxsiy sug`urtaning, xususan uning ajralmas bo`g`ini bo`lgan fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug`urtasining joriy etilishi bir necha asrlik tarixga ega. 1541 yilda Yevropada mavjud bo`lgan dengiz huquqi qoidalariga ko`ra, kema egalari shu kema kapitanlarini baxtsiz hodisalardan sug`urtalashlari shart bo`lgan.

1699 yil Angliyada shaxsiy sug`urta bilan shug`ullanadigan dastlabki sug`urta tashkiloti barpo etilgan va u avvalo beva ayollar hamda yetim bolalarni sug`urtasini amalga oshirgan. Bu jamiyatning nomi «Ekvatebl» deb atalgan. XVIII asrda esa Germaniyada suyak sinishi holatlaridan himoyalash bo`yicha o`zaro yordam uyushmalari tashkil etilgan. 1849 yili Angliyada temir yo`llarda baxtsiz hodisalardan sug`urtalash bo`yicha dastlabki «Railway Death Rascengers Company» nomli sug`urta kompaniyasi tuzildi. Shaxsiy sug`urta – bu inson hayotiga, uning mehnat qobiliyati va salomatligiga tahdid soladigan turli xavf-xatarlardan himoyalashning muhim shakli. Hozirgi paytda shaxsiy sug`urta sug`urta faoliyatining yirik tarmog`i sifatida jahon amaliyotida keng qo`llaniladi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda shaxsiy sug`urta turlari bo`yicha kelib tushgan sug`urta mukofotlari boshqa sug`urta turlari bo`yicha kelib tushgan sug`urta mukofotlariga nisbatan yuqori salmoqqa ega. Masalan, AQShda jami yig`ilgan sug`urta mukofotlari hajmida shaxsiy sug`urtaning hissasi 50,0 foizdan yuqoridir.

O`zbekiston Respublikasida shaxsiy sug`urtani amalga oshirishning huquqiy asoslari Fuqarolik kodeksining 921-moddasida aks ettirilgan. Shaxsiy sug`urta shartnomasi tuzishda sug`urta qildiruvchi bilan sug`urtalovchi o`rtasida quyidagilar to`g`risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug`urtalangan shaxs to`g`risida;

- sug`urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug`urta amalga oshirilayotgan voqea (sug`urta hodisasi)ning xususiyati to`g`risida;

- sug`urta puli miqdori to`g`risida;

- sug`urta mukofotining miqdori va uni to`lash muddati (muddatlari) to`g`risida;

- shartnomaning amal qilish muddati to`g`risida.

Sug`urtalanuvchining hayoti, sog`lig`i, mehnat qobiliyati bilan bog`liq mulkiy manfaatlari shaxsiy sug`urtaning ob`ekti hisoblanadi. Sug`urtalovchi va sug`urtalanuvchilar hamda sug`urtalangan shaxslar shaxsiy sug`urta sub`ektlaridir.

Shaxsiy sug`urta, odatda, fuqarolarni quyidagi xavf-xatarlardan himoyalanihini nazarda tutadi:

1. sug`urtalanuvchining yoki sug`urtalangan shaxsning vafot etishi;

2. mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yo`qotishi;

3. nafaqa yoshiga yetishi bilan fuqaroning faol mehnat faoliyatini tugashi.

Shaxsiy sug`urta 2 ta kichik tarmoqqa bo`linadi:

- hayot sug`urtasi;

- og`liqni sug`urtalash;

Sog`liqni sug`urtalash, o`z navbatida, 2 ta guruhga bo`linadi:

- baxtsiz hodisalardan sug`urtalash;

- tibbiy sug`urta.

Shaxsiy sug`urtani hayot sug`urtasiga va sog`liqni sug`urtalashga bo`linishiga asosiy sabab sug`urta summalarini jamg`arilib borilishidir. Hayot sug`urtasi uzoq muddatli bo`lib, unda shartnoma bo`yicha belgilangan sug`urta summasi har yili jamg`arilib boradi. Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug`urtalashda sug`urta summalari jamg`arilmaydi, muddati 1 yildan oshmaydi.

2002 yilning 28 mayidan e`tiboran «Sug`urta faoliyati to`g`risida» qonunning qabul qilinishi bilan sug`urta 2 ta tarmoqqa bo`lindi:

- hayot sug`urtasi;

- umumiy sug`urta.

Qonunga asosan sug`urtalovchilarning faoliyati sug`urtaning qaysi tarmog`iga ixtisoslashganligiga qarab alohida litsenziyalanadigan bo`ldi. Hayot sug`urtasini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo`lgan sug`urtalovchilar umumiy sug`urta turlarini o`tkazishga haqli emas yoki aksincha. Shaxsiy sug`urta ixtiyoriy va majburiy shakllarda amalga oshiriladi. Ixtiyoriy shaxsiy sug`urta turlariga quyidagilar kiradi:

- hayot sug`urtasi;
- fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug`urtalash;
- fuqarolarning sog`lig`ini va kasalliklardan sug`urtalash;
- fuqaroni ma'lum yoshgacha yetishish sug`urtasi;
- vafot etish holatidan uzoq muddatli sug`urta;
- tibbiy sug`urta;
- chet elga ketuvchilarni kasalliklardan sug`urta;
- maktab o`quvchilarini baxtsiz hodisalardan sug`urtalash.

Majburiy tarzda amalga oshiriladigan shaxsiy sug`urta turlariga quyidagilar kiradi:

- yo`lovchilarni baxtsiz hodisalardan majburiy sug`urtalash;
- soliq organlari xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug`urtasi;

O`zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qo`mitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sug`urtasi. Majburiy davlat sug`urtasini 2003 yil 1 yanvardan boshlab «O`zbekinvest» eksport-import milliy sug`urta kompaniyasi o`tkazib kelmoqda. Ushbu sug`urta turlari bo`yicha sug`urta tarifi bir sug`urtalanuvchiga bir yilga eng kam oylik ish haqining 20 foizi miqdorida belgilangan. Hozirgi paytda mamlakatimizda faoliyat ko`rsatayotgan sug`urta tashkilotlari, asosan, quyidagi sug`urta turlarini amalga oshirishadi:

- baxtsiz hodisalardan sug`urtalash;
- ixtiyoriy tibbiy sug`urta va kasal bo`lish holatidan sug`urta;
- chet elga ketayotgan shaxslarni sug`urtasi;

- hayot sug`urtasi.

Yuqorida qayd etilgan sug`urta turlari ichida baxtsiz hodisalardan sug`urtalash keng tarqalgan bo`lib, ular «O`zbekinvest» EIMSK, «O`zagrosug`urta» va «Kafolat» davlat-aksiyadorlik sug`urta kompaniyalari, «Madad» sug`urta agentligi kabi bir qator sug`urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Shaxsiy sug`urtaning ixtiyoriy turlari bo`yicha tarif stavkalari sug`urta tashkiloti tomonidan bozordagi talab va taklif, mijozning yoshini hisobga olgan holda aktuar hisob-kitoblar asosida ishlab chiqiladi. Shaxsiy sug`urtaning majburiy turlari bo`yicha tarif stavkalari qonunchilik hujjatlariga muvofiq hukumat tomonidan belgilanadi. Sug`urtalangan shaxsning hayotiga va sog`lig`iga quyidagi baxtsiz hodisalarni ro`y berishi natijasida shikast yetganda va tasdiqlanganda sug`urta summalari berilishi mumkin:


- jarohat olganda;
- suyaklarni sinishi, chiqishi;
- ichki organlarni zararlanishi;
- kuyishi;
- teri qatlamlarini sovuq urishi;
- elekt toki ta'sirida jarohatlanishi;
- kimyoviy moddalar va zararli o`simlik ta'sirida zararlanishi;
- tish sinishi.

Bundan tashqari yuqorida qayd etilgan holatlar natijasida o`lim xolati yuz berganda ham sug`urta summasi to`lanadi. Quyidagi hodisalarni ro`y berishi oqibatida sug`urtalangan shaxsning hayoti va sog`lig`iga shikast yetkazilsa yoxud o`limga olib kelsa sug`urta summasi to`lanmaydi:

- yadro portlashi;
- radiatsiya va nurlanish;
- sug`urtalangan shaxsning atayin hatti-harakati natijasida baxtsiz hodisalar yuz berganda, o`z joniga qasd qilganda va jinoiy harakatlar natijasida ro`y berishi.

Sug`urta mukofoti sug`urta tashkilotining hisob-kitob raqamiga kelib

tushgandan so'ng u shartnomada ko'rsatilgan muddat ichida fuqarolarga sug'urta polisini berishi shart. Agar sug'urta polisi yo'qotilgan taqdirda sug'urta tashkiloti sug'urtalagan shaxsga uning dublikatini beradi. Sug'urta tashkilotlarida asosiy daromad va harajatlar hisobi o'ziga xosligi bilan farq qiladi. Sug'urtani amalga oshirish, qonunchilikda man etilmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanish natijasida hisob raqamiga kelib tushgan pul mablag'larining jami uning daromadi hisoblanadi. Sug'urta tashkiloti daromadlarini guruhlashning turli variantlari mavjud. Ular ichida manbalarga ko'ra, olingan daromadlarni uch guruhga bo'lishga asoslangan variant keng qo'llaniladi (1.3.1-rasm).



**1.3.1-rasm. Sug'urta tashkilotlari daromadlari manbalari va tarkibi**<sup>6</sup>

Sug'urtalanuvchilarning huquqlari:

- sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urtalangan shaxs sug'urta tashkilotidan sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar olishi;

<sup>6</sup> «Теория и практика страхования». под ред. Турбиной К.Е. Учебное пособие. М.: «Анкил». 2003. стр. 68.

- sug`urta polisi yo`qotilganda uning dublikatini olish.

Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug`urtalashda sug`urtalangan shaxslar yana quyidagi huquqlarga ega bo`lishi mumkin:

- sug`urta summasini olishda nizolar paydo bo`lganda mustaqil ekspertni jalb etish;

- sug`urtalanuvchi bilan kelishilgan holda amaldagi sug`urta shartnomasiga qo`shimcha va o`zgartirishlar kiritish;

- sug`urtalovchi bilan kelishgan holda sug`urta shartnomasini muddatdan oldin bekor qilish.

Sug`urtalanuvchi majburiyatlari:

- sug`urta shartnomasida ko`rsatilgan muddat va shartlarda sug`urta mukofotlarini to`lash;

- sug`urtalangan shaxslarga sug`urta shartnomasi shartlari to`g`risida ma`lumotlar berish.

Sug`urtalovchining huquqlari:

- sug`urta hodisalari sug`urtalovchi tomonidan tan olinmaganda sug`urta summalarini to`lamaslik;

- sug`urta shartnomasida ko`rsatilgan muddatda sug`urta mukofoti to`lanmasa sug`urta shartnomasini bekor qilish.

Sug`urtalovchining majburiyatlari:

- fuqarolarni baxtsiz hodisalardan ixtiyoriy sug`urtalash qoidalari va sug`urta shartnomasi shartlari bilan sug`urtalanuvchini tanishtirish;

- sug`urta shartnomasida ko`rsatilgan muddatda sug`urta polisini berish;

- sug`urta hodisasi ro`y berganda sug`urta summasini to`lash;

- sug`urta summasini to`lashdan voz kechilganda, u holda 10 kun muddatda sug`urtalanuvchiga yozma ravishda xabar berish.

Sug`urta hodisasi ro`y berganda bu haqida sug`urtalangan shaxslar qisqa muddatda sug`urtalovchiga xabar berishi lozim. Baxtsiz hodisa ro`y berganda sug`urtalangan shaxslar sug`urtalovchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- sug`urta polisi;
- davolash profilaktika muassasidan baxtsiz hodisa natijasida sug`urtalangan shaxsning davolanganligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma.

Zaruriyat bo`lganda sug`urtalovchi sug`urta summasini to`lash masalasini hal etish uchun zarur bo`lgan boshqa hujjatlarni so`rashga ham haqli. Baxtsiz hodisalar ro`y berish natijasida o`lim hodisasi ro`y berganda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- sug`urta polisi;
- FXDYO bo`limidan o`lim holati ro`y bergani to`g`risida ma'lumotnoma;
- merosxurlik huquqini tasdiqlovchi hujjat;

Agar o`lim hodisasi yo`l-transporti natijasida ro`y bergan bo`lsa, yo`l harakati xavfsizligi organidan olingan ma'lumotnoma

- shaxsni tasdiqlovchi hujjat.

Sug`urtalovchi zaruriyat bo`lganda yuqoridagi hujjatlardan tashqari boshqa hujjatlarni so`rashga ham haqli. Sug`urtalovchi tomonidan sug`urta summasini to`lash to`g`risida qaror qabul qilinganda sug`urta summasi shartnomada ko`rsatilgan muddat ichida to`lab beriladi.

## **2-BOB. MOL-MULKNI SUG`URTALASH VA SUG`URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI**

### **2.1. Transport vositalarini sug`urtalash muammolari**

Sug`urtalovchi shartnoma shartlariga muvofiq, Sug`urta qildiruvchining sug`urta shartnomasining 2-ilovasida ko`rsatilgan transport vositasiga yuzaga kelgan sug`urta hodisalari bo`yicha etkazilgan zararni qoplab beradi, Sug`urta qildiruvchi esa sug`urta shartnomasida belgilangan tartib va muddatda sug`urta mukofotini to`lash majburiyatini oladi.

Haydovchi - sug`urta shartnomasida ko`rsatilgan transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasiga, mazkur transport vositasini boshqarish uchun ruxsatnomaga (ishonchnoma va boshq.) ega bo`lgan transport vositasini boshqaruvchi shaxs.

Sug`urtalangan transport vositasi - sug`urta shartnomasi va uning ilovasida ko`rsatilgan transport vositalari, o`ziyurar mashina va mexanizmlar.

Shartsiz franshiza - sug`urta shartnomasiga muvofiq Sug`urtalovchi tomonidan qoplanmaydigan Sug`urta qildiruvchi zararlarining ma`lum bir qismi. Franshiza sug`urta pulining ma`lum foizi ko`rinishida yoki muayyan miqdorda belgilanishi mumkin.

Sug`urtalash muddati - sug`urtalash ob`ektlari sug`urtalangan vaqt oralig`i.

Geografik hudud (chegara) - Sug`urtalovchining majburiyatlari amal qiladigan hudud.

Sug`urta shartnomasiga muvofiq Sug`urtalovchi Sug`urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga sug`urtalangan, ya`ni sug`urta shartnomasining 2-ilovasida ko`rsatilgan transport vositasining qisman yoki to`liq jismoniy yo`qolishi va shikastlanishidan ko`rilgan bevosita zararlarni quyidagilar natijasida yuzaga kelgan bo`lsa qoplaydi:

- olib qochish, o`g`irlash (o`g`irlik, talonchilik), yong`in, portlash, biron-bir narsaning urilishi, uchinchi shaxslarning qonunga xilof ravishda qasddan sodir



etgan xatti-harakatlari, yo`l-transport hodisasi (YTH), jumladan, ariq (kanal)ga ag`darilishi, tabiat hodisasi (yashin urishi) yoki tabiiy ofatlar (sel oqizishi, zilzila, jala yog`ishi, dovul, bo`ron, ko`chki). Quyidagilar natijasida sodir bo`lgan hodisalar sug`urta hodisasi hisoblanmaydi:

- sug`urta qildiruvchi, uning vakili yoki transport vositasidan foydalangan boshqa shaxslarning sug`urta hodisasi sodir bo`lishiga olib kelgan ataylab sodir etgan xatti-harakatlari, ularning o`z fuqarolik burchini bajarish yoki Sug`urta qildiruvchining va uchinchi shaxslarning hayotini, sog`lig`ini, nomusi va obro`sini himoya qilish yuzasidan qilgan harakatlari bundan mustasno;

- sug`urta qildiruvchining sug`urtalangan transport vositasini mastlik holatida (spirtli ichimlik ichgan holda) yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta`sir ko`rsatuvchi boshqa moddalar ta`siri ostida boshqarishi;

- sug`urtalangan transport vositasining qonunchilikda belgilangan tartibda haydash huquqi bo`lmagan Sug`urta qildiruvchi/haydovchi tomonidan boshqarilishi;

- sug`urta qildiruvchi tomonidan yong`in va portlash jihatidan xavfli moddalar va buyumlarni saqlash va tashish qoidalarining buzilishi;

- sug`urta qildiruvchining temir yo`lni kesib o`tayotganda yo`l harakati qoidalarini buzishi, svetaforning qizil chirog`iga o`tish yoki o`rnatilgan yo`nalishga qarshi harakatlanishi (yo`lning qarama-qarshi harakatlanishi uchun mo`ljallangan tomonida yoki bo`lagida harakatlanishi);

- transport vositasidan sug`urta shartnomasida ko`rsatilgan geografik hududdan tashqarida foydalanish;

- yo`lning qatnov qismidagi notekisliklar yoki uning yomon holatida o`tkir narsalarni bosib o`tish natijasida shinalarning shikastlanishi, agar bu hodisa transport vositasining shikastlanishi yoki nobud bo`lishiga olib kelmasa;

- transport vositasiga o`rnatilgan va uning zavoddagi to`plamiga (komplektiga) kirmaydigan qo`shimcha jihozlarning o`g`irlanishi, nobud bo`lishi

yoki zararlanishi, agar ushbu jihozlar sug`urta shartnomasining jadvalida alohida ko`rsatilgan bo`lmasa;

- transport vositasining uchinchi shaxslar tomonidan qonunga zid, qasddan sodir etilgan harakatlar natijasida o`g`irlanishi, yo`q qilinishi yoki shikastlanishi, agar ushbu hodisa tegishli tashkilotlarga xabar qilinmagan, shuningdek, bu tashkilotlar tomonidan ushbu hodisa tasdiqlanmagan bo`lsa;

- transport vositasining shikastlanish natijasida tovar qiymatini yo`qotishi;

- agar o`g`rilik, olib qochish holatlari haydovchining transport vositasiga bo`lgan ehtiyotsizligi oqibatida kelib chiqsa (kalitni o`t oldirish qulfida qoldirish, eshiklarni qulflamaslik, transport vositasini tunda xavfsiz turar joyda turishini ta`minlanmasligi, haydovchi o`z xoxishi bilan notanish shaxsni transport vositasi saloniga o`tirishiga yo`l qo`yishi);

- butun transport vositasi, shuningdek uning alohida qismlari va uzellarining doimiy mavjud bo`lgan foydalanish omillari (eskirish, eroziya, zanglab chirish (korroziya), o`tirindi (nakip) hosil bo`lishi va hokazo) ta`sirida zararlanishi;

- sug`urta qildiruvchining sug`urtalovchiga shikastlangan qismlarni yoki ularning qoldiqlarini, shikastlangan qismlarning butkul yo`q bo`lishi holatlarini istisno qilgan holda taqdim etishdan bosh tortishi;

- tashqi omillarga bog`liq bo`lmagan ichki buzilishlar natijasida transport vositalarining shikastlanishidan ko`rilgan zararlar.

Sug`urta qildiruvchi, uning vakili Sug`urtalovchiga zarar miqdori va sababini aniqlash uchun zarur bo`lgan xujjatlarni taqdim etmasa;

- Sug`urta qildiruvchi/Naf oluvchi Sug`urtalovchiga sug`urta hodisasi yuz berish sabablarini o`rganishga yoki etkazilgan zararlar hajmini aniqlashga to`squinlik qilganligi sababli shartnomaning bekor qilinishi yoki O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va boshqa qonunlarga asosan sug`urta shartnomasi kuchga ega emasligini e`tirof etish haqida Sug`urtalovchi tomonidan da`vo berilganda;

Sug`urta hodisasi quyidagilar natijasida yuz bergan bo`lsa, Sug`urtalovchi

sug`urta qoplamasi va sug`urta pulini to`lashdan ozod bo`ladi:

- transport vositasidan haydashni o`rgatish yoki musobaqa va sinovlarda qatnashish maqsadida foydalanish;

- yadroviy portlash, radiatsiya va radioaktiv zaharlanish ta`siri;

- harbiy harakatlar, manyovrlar yoki boshqa harbiy tadbirlar.

Sug`urtalovchi sug`urtalangan transport vositasining tergov natijasida musodara qilinishi, konfiskatsiya, rekvizitsiya, xibsga olinishi yoki davlat organlari farmoyishiga ko`ra yo`q qilinishi natijasida yuzaga kelgan zararlarni qoplash majburiyatidan ozod qilinadi. Sug`urta mukofoti (badali) naqd pul bilan, Sug`urtalovchining bankdagi hisob raqamiga to`lash orqali yoki naqd pulsiz hisob-kitob yo`li bilan amalga oshiriladi. Sug`urta mukofoti to`liq to`lanmagan taqdirda, Sug`urtalovchining javobgarligi sug`urta mukofotining to`langan qismiga mutanosib ravishda bo`ladi. Sug`urtalovchining hisob-raqamiga sug`urta mukofoti kelib tushganidan so`ng 3 ish kuni ichida sug`urta polisi rasmiylashtirib beriladi.

Sug`urta shartnomasi tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va sug`urta polisida ko`rsatilgan muddatgacha amal qiladi. Sug`urta qildiruvchi va Sug`urtalovchining javobgarligi Sug`urtalovchining bankdagi hisob raqamiga sug`urta mukofoti yoki birinchi badal kelib tushgandan so`ng boshlanadi. Sug`urtalash muddati sug`urta polisida qayd qilinadi. Quyidagi grafik va diagrammada «Kafolat» DASK AJning 2014 yil yakunlari bo`yicha ma`lumotlari asosida transport vositalari egelerining fuqarolik javobgarliklarini majburiy sug`urta (TVEFJMC) bo`yicha sug`urta mukofotlari dinamikasi ko`rsatilgan (2.1.1-grafik va diagramma).

Har ikkala tomon xohlagan vaqtda sug`urta shartnomasini yozma arizaga ko`ra bekor qilish huquqiga ega. Buning uchun ariza shartnoma bekor qilinmoqchi bo`lgan kundan 30 kun avval berilishi kerak. Sug`urta shartnomasi amal qilishi quyidagi hollarda to`xtatiladi:


- muddati tugaganda;

- Sug`urtalovchi shartnoma bo`yicha o`z majburiyatlarini to`liq bajarganda;

- bir tomonning talabiga binoan shartnoma bekor qilinganda;
- yuridik shaxs - Sug`urta qildiruvchi yoki Sug`urtalovchining faoliyati

### 2.1.1-grafik

«Kafolat» DASK AJ Xorazm filialida 2011-2014 yillardagi TVEFJMS bo'yicha sug`urta mokofotlari o'sih dinamikasi (foiz)



O`zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda to`xtatilganda;


- sud qaroriga binoan sug`urta shartnomasi bekor qilinganda;
- O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda;

Basharti sug`urta shartnomasi kuchga kiringandan so`ng sug`urta hodisasining yuz berish ehtimoli yo`qqa chiqsa va sug`urta tavakkalchiligi sug`urta hodidasidan boshqa sabablarga ko`ra mavjud bo`lmay qolsa, masalan, sug`urtalangan transport vositasi sug`urta hodidasidan o`zga sabablar tufayli nobud bo`lsa, sug`urta shartnomasi muddati tugamasdan oldin to`xtatiladi. Bu holda Sug`urtalovchi sug`urta mukofotining sug`urta shartnomasi amalda bo`lgan vaqtga mutanosib bo`lgan qismini olish huquqiga ega.

Sug`urta qildiruvchi/Naf oluvchi sug`urta shartnomasini muddatidan avval

to'xtatsa, uning talabiga ko'ra to'langan sug'urta mukofoti sug'urta shartnomasi amal qilgan muddatga proporsional ravishda umumiy to'langan sug'urta mukofotidan 25 %i ayirilgan holda qaytarib berilishi mumkin. Agar Sug'urta qildiruvchining yolg'on ma'lumotlari asosida sug'urta shartnomasidagi sug'urta puli oshirilgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi bekor qilinishini va etkazilgan zararlarni talab qilishi huquqiga ega. Agar sug'urta shartnomasi tuzilganidan so'ng Sug'urtalovchiga Sug'urta qildiruvchi tomonidan shart-sharoit haqida ataylab yolg'on ma'lumotlar berilgani ma'lum bo'lsa, Sug'urtalovchi shartnoma bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

**2.1.1-diagramma**  
**«Kafolat» DASK AJ Xorazm filialida 2010-2014 yillardagi TVEFJMS bo'yicha sug'urta mukofotlari o'sish dinamikasi (ming so'mda)**



Sug'urta qildiruvchining sug'urta shartnomasi shartlarini bajarmaganligi sababli Sug'urtalovchining tashabbusi bilan sug'urta shartnomasi muddatidan ilgari bekor qilinsa, sug'urta mukofoti qaytarilmaydi. Sug'urta qildiruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- Sug'urta muddati davomida sug'urta masalalari bo'yicha

Sug`urtalovchidan maslahatlar olish.

- Sug`urta hodisasi yuz berganda Sug`urtalovchidan sug`urta qoplamasi olish. Sug`urta hodisasi yuz berganda mustaqil ekspertiza o`tkazilishini talab qilish. Transport vositasiga o`rnatilgan boshqa alohida ob`ektlarni qo`shimcha sug`urta qilish. Sug`urtalovchi bilan kelishgan holda sug`urta shartnomasiga qo`shimcha yoki o`zgartirishlar kiritish. Sug`urtalovchiga yozma murojaat qilgan holda shartnomani muddatidan avval bekor qilish. Sug`urtalovchining sug`urta qoplamasini yoki sug`urta pulini to`lamlaslik haqidagi qarori bo`yicha sudga da`vo arizasi bilan murojaat etish.

Sug`urta qildiruvchining majburiyatlari:

- Sug`urtalovchi so`ragan xujjatlarni taqdim etish; Sug`urta shartnomasida belgilangan muddatda sug`urta mukofotini to`lash. Sug`urtalash ob`ekti haqida Sug`urtalovchiga to`liq va aniq ma`lumotlar berish. Sug`urtalovchiga boshqa sug`urta kompaniyalari bilan tuzgan shartnomalari haqida ma`lumot berish, agar shunday holatlar mavjud bo`lsa. Sug`urtalovchiga sug`urta davri mobaynida transport vositasini boshqarish huquqiga(ishonchnomasiga) ega bo`lgan shaxslar ro`yxatini berish. Sug`urtalangan ob`ektni ko`rib chiqishga imkoniyat yaratish. Avtotransport uchun tunda xavfsiz turar joyni ta`minlash. Sug`urta davri mobaynida sug`urtalangan ob`ekt bilan bog`liq bo`lgan o`zgarishlar (sug`urtalangan transport vositasini mulk huquqining boshqa shaxsga o`tishi, undan foydalanish maqsadining o`zgarishi, qushimcha jixoz (gaz yoki boshqalar) o`rnatilishi, YXHB («O`zdavtexnazorat» inspeksiyasi) tomonidan transport vositasi hisobdan chiqarilsa yoki qayta rasmiylashtirilsa va boshqlar) yuz bergan taqdirda 5 (besh) ish kuni ichida Sug`urtalovchini yozma ogohlantirish. Sug`urtalangan transport vositasi o`g`irlangan taqdirda:

a) Sug`urta qildiruvchi yoki uning vakili voqea yuz bergani haqida, voqea yuz bergan joyni aniq ko`rsatgan holda va yuz bergan vaqtdan boshlab kechi bilan 72 soat ichida Sug`urtalovchini yoki uning vakilini ogohlantirishi lozim. Sug`urta qildiruvchi voqea haqida ogohlantirganidan so`ng 3 (uch) ish kuni ichida

Sug`urtalovchiga voqeaning sababi va tafsilotlari ko`rsatilgan holda yozma ko`rinishda (faks yoki boshqa vosita orqali) xabarnoma yuborish;

b) voqea haqida zudlik bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

v) Sug`urtalovchiga mazkur voqea yuzasidan jinoiy ish qo`zg`atilganligi, to`xtatilganligi yoki ishning sudga oshirilganligi haqidagi qarorlarning tergov organlari tomonidan tasdiqlangan nusxasini taqdim qilish.

Yo`l-transport hodisasi (YTH), portlash, yong`in, narsalar urilishi, tabiat hodisalari yoki tabiiy ofatlar oqibatida transport vositasi nobud bo`lsa yoki shikastlansa:

a) yuzaga kelgan hodisa bo`yicha mazkur sug`urta shartnomasining 8.2.9.(a) bandi bo`yicha Sug`urtalovchiga xabar berish;

b) YTH xususida YHXXBga darhol xabar berish. Voqea yuz bergan joyning o`zida ushbu YTH yuzasidan bayonnoma yoki ma`muriy dalolatnoma tuzilishi shart;

v) Sug`urtalovchiga voqeaning ishtirokchilari ko`rsatilgan YHXXBni ma`lumotnomasining asl nusxasini taqdim etish;

g) Sug`urtalovchiga shikastlangan transport vositasini ko`zdan kechirish uchun taqdim etish yoki transport vositasining hamma shikastlangan qismlarini fotosuratga yoxud videotasvirga tushirib berish va tiklash ishlari boshlangunga qadar Sug`urtalovchi bilan keyingi xatti-harakatlarini kelishib olish;

d) ta`mirlash ishlari amalga oshiriladigan joyni Sug`urtalovchi bilan kelishib olish;

e) transport vositasini ta`mirlashga kerak bo`lgan barcha ehtiyot qismlar, materiallar va qilinadigan barcha ishlar ro`yxati ko`rsatilgan qayta tiklashni amalga oshirish naryad - buyurtmasi/kalkulyatsiyasining asl nusxasini Sug`urtalovchiga taqdim etish.

Sug`urtalovchiga mazkur shartnoma muddati davomida sug`urtalangan transport vositasining holatini hamda Sug`urta qildiruvchi tomonidan transport vositasi haqida taqdim etilgan ma`lumotlar to`g`riligini tekshirishga imkoniyat yaratib berish. Sug`urta qildiruvchi sotib olinayotgan transport vositalari (qishloq xo`jalik texnikalari) ning «qabul qilish-topshirish dalolatnomalari» nusxalarini Sug`urtalovchiga taqdim etadi. Sug`urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

- sug`urta shartnomasi muddati davomida sug`urtalangan transport vositasining holatini hamda sug`urta qildiruvchi tomonidan transport vositasi haqida taqdim etilgan ma`lumotlar to`g`riligini tekshirish;

- sug`urta hodisasi yuz berganda sug`urta qildiruvchining xabar berishini kutmasdan sug`urta hodisasi oqibatida ko`rilgan zararlarni ko`rib chiqish va baholashni amalga oshirishni boshlash;

- sug`urta hodisasi yuz berganda tavakkalchilik darajasini tavsiflovchi qo`shimcha hujjatlarni talab qilish;

- sug`urta hodisasi sodir bo`lganini va uning sabablarini tasdiqlovchi barcha kerakli hujjatlar va to`liq ma`lumotga ega bo`lmaguncha hamda voqea yuzasidan jinoiy ish qo`zg`atilganida tegishli tashkilotlar tomonidan tegishli qaror qabul qilingunga qadar sug`urta qoplamasi to`lash muddatini keyinga surish;

Sug`urtalovchining majburiyatlari:

- sug`urta polisini sug`urta mukofoti sug`urtalovchining hisob rakamiga kelib tushganidan so`ng 3 (uch) ish kuni ichida berish;

- sug`urta shartnomasida belgilangan sug`urta hodisasi yuz berganini tan olganidan va kerakli barcha ma`lumotlarga ega bo`lganidan so`ng 10 (o`n) ish kuni ichida sug`urta qoplamasini to`lash.

- sug`urta qoplamasi to`lanmaydigan taqdirda, to`lamaslik haqida qaror qabul qilinganidan boshlab 15 (o`n besh) ish kuni mobaynida sug`urta qildiruvchini yozma ravishda xabardor qilish.

- sug`urta qildiruvchi va naf oluvchilar bilan munosabatlardagi maxfiylikni ta`minlash.



Sug`urta qildiruvchining zararni qoplash haqidagi arizasi Sug`urtalovchiga 3 (uch) ish kuni ichida berilishi kerak. Arizada quyidagi ma`lumotlar bo`lishi kerak:

- sug`urta hodisasining tavsifi va sanasi;
- Sug`urta qildiruvchining sug`urta hodisasi yuz bergandagi xatti-harakatlari;
- sug`urta hodisasining tavsifidan kelib chiqqan holda zarar miqdori va Sug`urta qildiruvchi da`vo qilayotgan sug`urta qoplamasining miqdori;
- uchinchi shaxslardan olingan tovon miqdori (mavjud bo`lsa).

Sug`urta qildiruvchi tomonidan sug`urta hodisasi yuz bergani haqida arizasi berilganidan so`ng 3 (uch) kunlik muddat ichida Sug`urtalovchi zararlangan transport vositasini ko`zdan kechiradi. Sug`urta qoplamasi:

a) transport vositasi o`g`irlanganda yoki butkul nobud bo`lganda – sug`urta shartnomasida ko`rsatilgan ushbu transport vositasining to`liq sug`urta puli miqdorida;

b) transport vositasi zararlanganda – qayta ta`mirlash ishlariga oid naryad – buyurtma/kalkulyatsiya summasi miqdorida, lekin sug`urta shartnomasida ko`rsatilgan mazkur transport vositasining sug`urta pulidan oshmagan miqdorda to`lanadi.

Sug`urta qoplamasi transport vositasining almashtirilishi lozim bo`lgan ehtiyot qismlarining tabiiy eskirishini hisobga olgan holda to`lanadi. Sug`urta qoplamasini olish uchun Sug`urta qildiruvchi quyidagi hujjatlarni topshiradi:

Transport vositasi o`g`irlanganda:

a) yuzaga kelgan hodisani tekshirish bo`yicha tegishli organlarning (YXHB, IIV va boshq.) tegishli ma`lumotnomalari;

b) sug`urta polisi.

Transport vositasi zararlanganda:

a) hodisani tekshirgan tegishli organlarning (YXHB, IIV, YoXH va boshq.) dalolatnomalarining (xulosa va qarorlari) asl nusxasi;

b) haydovchining spirtli ichimlik iste`mol qilgan yoki yo`qligi to`g`risidagi sud tibbiy ekspertizasining hulosasi;

v) baholash faoliyatni amalga oshirishga tegishli litsenziyasi bo'lgan baholovchi tashkilot tomonidan ko'rilgan zararni baholash bo'yicha hisoboti;

g) sug'urta polisi.

Barcha holatlarda hujjatlarga qo'shimcha tarzda Sug'urta qildiruvchining/haydovchining pasporti, haydovchilik guvoxnomasi, transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjat (ishonchnoma), transport vositasining texnik pasporti taqdim etilishi kerak.

Agar tomonlar zararining sababi va hajmi yuzasidan o'zaro kelisha olishmasa, u holda mustaqil ekspertiza o'tkazilishi mumkin. Sug'urta hodisasi holatini tekshirish uchun Sug'urtalovchi betaraf ekspertni jalb qilish huquqiga ega, ekspert xulosasi sug'urta qoplamasining to'lash uchun belgilangan pulni o'zgarishiga asos bo'ladi (ekspert tomonidan hujjatlarni ko'rib chiqish 15 kun ichida amalga oshiriladi).

Sug'urtalovchi ayrim holatlarda sug'urta hodisasi sababi va miqdorini aniqlash uchun tegishli organlarga, tashkilotlarga, Sug'urta qildiruvchiga murojaat etib, boshqa tegishli ma'lumotlarni olishi, shu bilan birga voqea sababi va holatini o'zi aniqlashi mumkin.

Agar zarar uning sababchisi tomonidan butunlay qoplangan bo'lsa, u holda Sug'urta qildiruvchi sug'urta qoplamasini talab qilish huquqidan mahrum bo'ladi. Agar Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi zarar sababchisi yoki uchinchi shaxslardan qoplama olgan bo'lsa,

Sug'urtalovchi faqat sababchi yoki uchinchi shaxs tomonidan to'langan qoplama bilan sug'urta shartlariga muvofiq to'lanishi kerak bo'lgan pul o'rtasidagi farqni to'laydi. Barcha hollarda sug'urta qoplamasi belgilangan shartsiz franshizani ayirgan holda to'lanadi. Sug'urta qoplamasi transport vositasining zararlangan, almashtirilishi lozim bo'lgan ehtiyot qismlarining tabiiy eskirishini hisobga olgan holda to'lanadi.

Sug'urtalovchining sug'urta qoplamasini to'lamaslik haqidagi qarori Sug'urta qildiruvchiga/Naf oluvchiga ular tomonidan sug'urta qoplamasini to'lash

haqidagi murojaatidan boshlab 15 kun mobaynida xabar berilishi kerak va unda rad etishning sabablari ko'rsatilishi lozim. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchining sug'urta natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqi to'langan summa doirasida sug'urta tovonini to'lagan Sug'urtalovchiga o'tadi. Talab qilish huquqi Sug'urta qildiruvchining haydovchilariga nisbatan qo'llanilmaydi. Sug'urtalovchiga o'tgan da'vo huquqini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar, dalillar va boshqa ma'lumotlarni Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi Sug'urtalovchiga taqdim etishga majbur.

Agar Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi zarar uchun javobgar shaxsga bo'lgan, Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun da'vo xuquqidan voz kechsa yoki uning aybi tufayli da'vo qilishning iloji bo'lmasa, Sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini butunlay yoki tegishli qismini to'lamaslik va to'langan sug'urta qoplamasining ortiqcha qismi qaytarilishini talab qilish huquqiga ega. Sug'urta qoplamasi Sug'urta qildiruvchiga/Naf oluvchiga arizasida ko'rsatilgan bankdagi hisob-raqamlariga o'tkazib beriladi.

Agar Sug'urta qildiruvchi qayta tashkil qilinsa, uning sug'urta shartnomasi bo'yicha huquq va majburiyatlari qonuniy vorisiga o'tadi va bu haqda Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor etadi. Sug'urtalovchi faqat, Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi ushbu shartnoma buyicha majburiyatlarini bajargan taqdirda hamda Sug'urta qildiruvchi tomonidan ariza-anketada ma'lum qilingan ma'lumotlar ishonchli va haqiqiy bo'lganda mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajaradi.

Sug'urta shartnomasi bo'yicha huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxslarga o'tkazish tomonlarning yozma roziligisiz amalga oshirilishi mumkin emas. Har bir sug'urta hodisasi bo'yicha shartsiz franshiza har bir sug'urtalangan transport vositasining sug'urta pulidan (summasidan) 2,0 % ini tashkil qiladi. Tomonlar fors-major shartlari davrida sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki butunlay bajara olmasliklari uchun javobgar emaslar.

Fors-major shartlari bo`lib quyidagilar hisoblanadi: harbiy harakatlar, blokadalar, ish tashlashlar, davlatlararo va davlat tashkilotlarining cheklovchi va taqiqlovchi choralar, sug`urta shartnomalarida ko`rsatilmagan tabiiy ofatlar. Fors-major shartlari yuz berganda yoki tugaganda tomonlar bir-birini yozma ravishda xabardor qilishlari kerak. Fors-major shartlari yuz berganda tomonlarning o`z majburiyatlarini bajarish muddatlari fors-major sharti davom etgan muddatga teng muddatga uzaytiriladi.

## **2.2. Mol-mulk sug`urtasi sug`urta mukofotlari yuzasidan soliq imtiyozlari**


O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi «Sug`urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi PQ-618-sonli qaroriga (O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2007 yil, 15-son, 158-modda) muvofiq mol-mulk sug`urtasi va uzoq muddatli hayot sug`urtasiga oid sug`urta mukofotlari bo`yicha soliq imtiyozlarini berish belgilangan.

Mol-mulk sug`urtasi sug`urta mukofoti – sug`urta shartnomasida belgilangan muddat va tartibda sug`urta qildiruvchi sug`urtalovchiga to`lashi shart bo`lgan sug`urta haqi, mol-mulk sug`urtasi shartnomasi – sug`urta shartnomasi bo`lib, unga ko`ra bir taraf shartnomada shartlashilgan haq evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea sodir bo`lganda boshqa tarafga yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo`lsa, o`sha shaxsga bu hodisa oqibatida sug`urtalangan mulkka etkazilgan zararni yoxud sug`urta qildiruvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog`liq zararni shartnomada belgilangan summa doirasida to`lash (sug`urta tovonini to`lash) majburiyatini oladi.

Quyidagi grafiklarda «Kafolat» DASK AJning 2014 yil yakunlari bo`yicha ma`lumotlari asosida mol-mulk sug`urtasi mukofoti o`shish dinamikasi ko`rsatilgan (2.2.1-a,b grafiklar).

## 2.2.1-A grafik

**«Kafolat» DASK AJ Xorazm filialida 2011-2014 yillardagi Mol-mulk sug`urtasi bo`yicha sug`urta mukofotlari o`sh dinamikasi (foiz)**




Uzoq muddatli hayot sug`urtasi shartnomasi – sug`urta shartnomasi bo`lib, unga muvofiq bir taraf (sug`urtalovchi) boshqa taraf (sug`urta qildiruvchi) to`laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug`urta mukofoti) evaziga sug`urta qildiruvchining o`zining yoxud shartnomada ko`rsatilgan boshqa fuqaro (sug`urtalangan shaxs)ning hayoti yoki sog`lig`iga zarar etkazilgan, u muayyan yoshga to`lgan yoki uning hayotida shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug`urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug`urta pulini) bir yo`la yoki vaqti-vaqti bilan to`lab turish majburiyatini oladi.

Sug`ura polisi – sug`urta shartnomasining imzolanganligini va sug`urta shartnomasiga muvofiq sug`urtalovchining sug`urta qoplamasini to`lash bo`yicha majburiyatining kuchga kirganligini tasdiqlovchi va sug`urta mukofoti to`langandan so`ng sug`urtalovchi tomonidan sug`urta qildiruvchiga beriladigan hujjat (shahodatnoma, sertifikat, kvitantsiya).

Yuqorida ta'kidlangan soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqini beruvchi asos bo'lib sug'urta polisi hisoblanadi.

### 2.2.1-B grafik

«Kafolat» DASK AJ Xorazm filialida 2011-2014 yillardagi JSh lar Mol-mulk sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari o'sih dinamikasi



Yuridik shaxs (mulkdor, xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqining sub'ekti) tomonidan mol-mulkni sug'urtalash shartnomasi bo'yicha to'langan sug'urta mukofoti summasi, shuningdek o'z xodimlarining hayotini uzoq muddatli sug'urtalash shartnomasi bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari summasi jami daromaddan chegiriladi. Yuridik shaxs tomonidan (xodimlar kategoriyasiga kirmaydigan) boshqa shaxslarning hayotini uzoq muddatli sug'urtalash shartnomasi bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari summasi, daromad (foyda) solig'ini hisoblashda jami daromaddan chegirilmaydi.

Yuridik shaxs tomonidan o'z xodimi uchun uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari summasi, jismoniy shaxsning soliqqa tortiladigan daromadi sifatida qaralmaydi. Mustaqil ravishda mol-mulk sug'urtasi

va/yoki uzoq muddatli hayot sug`urtasi bo`yicha sug`urta mukofotlarini to`lagan jismoniy shaxslar, to`langan sug`urta mukofotlari summasini soliqqa tortiladigan daromadni hisoblashda asosiy ish joyi bo`yicha yoki hisobot yili uchun yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yillik jami daromadlar to`g`risidagi deklaratsiyani topshirishda, yillik jami daromaddan chegirish huquqiga ega. Mol-mulk sug`urtasi va/yoki uzoq muddatli hayot sug`urtasi shartnomasi muddatidan oldin bekor bo`lganda va sug`urtalovchi tomonidan sug`urta mukofotining jami summasi yoki bir qismi sug`urta qildiruvchiga qaytarilganda, agar sug`urta qildiruvchiga avval ushbu Nizomga muvofiq imtiyozlar berilgan bo`lsa, sug`urtalovchi sug`urta mukofotini soliqqa tortiladigan daromadga kiritish maqsadida sug`urta qildiruvchi (yuridik yoki jismoniy shaxs) ro`yxatga olingan joyi bo`yicha davlat soliq xizmati organlariga qaytarilgan sug`urta mukofoti hajmi to`g`risida xabar beradi.

Yuridik shaxslar daromad (foyda) solig`i va jismoniy shaxslarning daromad solig`ini qonunchilik asosida berilgan imtiyozlarni hisobga olgan holda to`g`ri hisoblanishi bo`yicha javobgardirlar. Soliq imtiyozlarining to`g`ri qo`llanilishini nazorat qilish davlat soliq xizmati organlari tomonidan O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i bo`yicha soliq hisoboti shakllarida soliq imtiyozlari aks ettiriladi.

O`zbekiston Respublikasi «Davlat soliq xizmati to`g`risida»gi Qonunining 7-moddasi va O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi «Sug`urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi PQ-872-son qaroriga (O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2008 y., 20-21-son, 172-modda) muvofiq, soliq imtiyozlarini qo`llash belgilangan. 2008 yil 1 iyundan:

- yuridik va jismoniy shaxslarning sug`urtalovchilar aksiyalari bo`yicha dividendlar ko`rinishida olingan daromadlari yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`ini to`lashdan ozod qilinadilar;

- sug`urtalovchilarning dividendlar va foizlar ko`rinishida olingan daromadlari yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`ini to`lashdan ozod qilinadi va soliqdan bo`shagan mablag`lar respublika hududlarida, birinchi navbatda, qishloq joylarida hududiy bo`linmalarni, keng tarmoqli agentlik tizimini tashkil qilish, shuningdek ularning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga maqsadli yo`naltiriladi.

Imtiyozlar imtiyoz davrida hisoblangan va olingan yuqorida sanab o`tilgan daromadlarga tatbiq etiladi. imtiyoz davri mobaynida quyidagilar to`lov manбайдan soliq ushlanmaydi:

- sug`urtalovchilar – yuridik va jismoniy shaxslarga dividendlar to`laganda;
- yuridik shaxslar – sug`urtalovchilarga dividendlar va foizlar to`laganda.

Bunda, mazkur daromadlar yuridik (jumladan sug`urtalovchida) va jismoniy shaxsda – daromad oluvchida ham soliqqa tortilmaydi. Yuridik shaxslarga berilgan imtiyozlar rasmiylashtiriladi va buxgalterlik hisobida aks ettiriladi (Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to`lovlarni budjetga to`lash bo`yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to`g`risidagi nizom. 2005 yil 2 aprel, ro`yxat raqami 1463. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2005 y., 14-son, 105-modda). Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i bo`yicha soliq hisoboti shakllarida:

a) daromad oluvchida:

- dividendlar Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i hisob-kitobining 070-satrida aks ettiriladi;

- foizlar Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i hisob-kitobining 080-satrida aks ettiriladi;

b) soliq agentlarida (to`lov manбайдa):

- dividendlar Soliq agentlari tomonidan dividendlar va foizlar ko`rinishidagi daromadlardan to`lov manбайдa ushlab qolinadigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i hisob-kitobi 0303-satrining tegishli kichik satrida aks ettiriladi;

- foizlar Soliq agentlari tomonidan dividendlar va foizlar ko`rinishidagi



daromadlardan to'lov manbaida ushlab qolinadigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobi 0903-satrining tegishli kichik satrida aks ettiriladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan satrlar daromad summasi va ushlab qolingani yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining jami summasi to'g'risida ma'lumotnoma mavjud bo'lgan taqdirda to'ldiriladi. Bunda, yuridik shaxslar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobiga bu ma'lumotnomaning nusxalarini ilova qiladi. Dividendlar va foizlar to'lovchi yuridik shaxslar quyidagilarga majburlar:

a) to'langan daromadlar hisobini yuritish hamda Jami daromad summasi va to'lov manбайдan ushlab qolingani yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining umumiy summasi to'g'risida ma'lumotnomani taqdim etish;

b) daromad olayotgan yuridik shaxslarga ularning talabiga ko'ra Daromad summasi va ushlab qolingani yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining jami summasi to'g'risida ma'lumotnomani yuborish.

Yuridik shaxslar berilgan soliq imtiyozlarini hisobga olgan holda qonun hujjatlariga muvofiq soliqlarning to'g'ri hisoblanishiga va soliqlarning o'z vaqtida to'lanishiga javobgarlar.

### **2.3. Sug'urta tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari**

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini ular barqaror rivojlanishi va moliyaviy faoliyat ko'rsatish jarayonida ehtimoli bo'lgan risklardan himoyalashda sug'urta tizimi katta ahamiyatga ega. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Buni 2013 yilda sug'urta tashkilotlari tomonidan 338,4 mlrd.so'm miqdorida sug'urta mukofotlari yig'ilgani, bu 2012 yildagiga nisbatan 132,1 foizga ko'pligi ham tasdiqlaydi.<sup>7</sup>

---

<sup>7</sup> www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «2013 yilda xizmat ko'rsatish bo'yicha 13 mingdan ortiq korxonalar, jumladan, savdo-maishiy komplekslar, minibanklar va sug'urta kompaniyalari filiallari va boshqa korxonalar tashkil etildi. Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13,5 foizga, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 2000 yildagi 37 foizdan 53 foizga o'sdi».<sup>8</sup>

Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta xizmatlarining rivojlanish darajasi ularning YaIMdagi ulushi bilan belgilanadi. 2011 yilda AQSh, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniyada ushbu ko'rsatkich o'rtacha 6-8 foizni tashkil etdi.<sup>9</sup> 2013 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda sug'urta xizmatlari ulushi mamlakat YaIMining 0,32 foizini tashkil etdi.

Shu bilan birga e'tirof etish kerakki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy sug'urta tizimi xizmatlari bilan bog'liq qator muammolar vujudga kelayotganligi bois, umumiy nisbatda YaIM tarkibida sug'urta mukofotlarining ulushi kam, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mukofotlari past darajada, sug'urta tashkilotlari tomonidan marketing izlanishlari deyarli o'tkazilmayapti. Milliy sug'urta xizmatlari bozorida sug'urtaning 750 dan ortiq turi mavjud bo'lgani holda mamlakatimizda sug'urta tashkilotlari tomonidan ularning 100 ga yaqini aholiga taqdim etilmoqda.

Sug'urta tashkilotlari keng qatlamli salohiyatli mijozlarni sug'urta himoyasiga jalb etish uchun ularning manfaatiga mos keladigan yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqmoqdalar. Bunga ular o'rtasida raqobat muhiti kuchayayotganligi ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ayniqsa, O'zbekistonda sug'urta sohasini rivojlantirish uchun hukumat tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlar sug'urta xizmatlari ko'rsatish sifati yuqori bosqichga ko'tarilishiga qulay shart-sharoitlar yaratmoqda.

2013 yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlari va to'langan sug'urta

---

<sup>8</sup> Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. - T.: O'zbekiston, 2014, 11-6.

<sup>9</sup> www.fssn.ru - Rossiya Federatsiyasi.

qoplamalarining sug`urta tashkilotlari bo`yicha taqsimoti 2.3.1-jadvalda keltirilgan.

### 2.3.1-jadval

#### O`zbekiston Respublikasi sug`urta xizmatlari bozorida 2013 yilda jamlangan sug`urta mukofotlari va to`langan sug`urta qoplamalarining sug`urta tashkilotlari bo`yicha salmog`i <sup>10</sup>

№	Sug`urta tashkilotlari	Sug`urta mukofotlari		Sug`urta qoplamalari		
		Bozordagi ulushi (%)	Sug`urta mukofotlari (mlrd. so`m)	Bozordagi ulushi (%)	Sug`urta qoplamalari (mlrd. so`m)	To`lov koeffitsienti (%)
1	«Uzagrosug`urta» DASK	18,2	61,6	18,2	8,3	13,5
2	«Uzbekinvest» EIMSK	13,0	44,1	13,0	26,7	60,7
3	«Asia Inshurans» MChJ	10,2	34,7	10,2	2,0	5,85
4	«Kafolat» DASK	9,2	31,1	9,2	6,3	20,4
5	«Alfa Invest» OAJ	6,1	20,7	6,1	1,9	9,4
6	«Kapital Sug`urta» OAJ	5,5	18,6	5,5	3,1	17,1
7	«Alskom» OAJ	5,4	18,5	5,4	1,2	6,8
8	«Uvt Inshurans» SK	4,5	15,1	4,4	1,4	9,2
9	«Temiryo`l-Sug`urta» SK	4,0	13,6	4,0	0,9	6,9
10	«O`zbekinvest hayot» DSK	3,1	10,7	3,1	5,9	55,2

Shuni alohida ta`kidlash lozimki, so`nggi yillarda sug`urta mukofotlari hajmining sifat ko`rsatkichlari yaxshilandi. Misol uchun, bozorda raqobat o`shishi bilan O`zbekiston sug`urta xizmatlari bozoridagi konsentratsiya darajasi ham kamayish sur`atiga ega bo`ldi. Masalan, jadval ma`lumotlaridan shuni ko`rishimiz mumkinki, etakchi sug`urta tashkilotlari qatoriga kiruvchi beshta sug`urta tashkiloti 2013 yilda yig`ilgan yalpi sug`urta mukofotlarining 56,7 foizini to`plagan. 2007 yil yakunlari bo`yicha ularning hissasiga yalpi sug`urta mukofotlarining 73,3 foizi to`g`ri kelgan.

Sug`urta xizmatlari bozorida yig`ilgan sug`urta mukofotlarini sug`urta tarmoqlari bo`yicha tahlil qiladigan bo`lsak, jadvaldagi holatni kuzatishimiz

<sup>10</sup> www.mf.uz - O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

mumkin (2.3.2-jadval).

### .3.2-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorida yig'ilgan sug'urta mukofotlarining tarkibiy o'zgarishi <sup>11</sup>

(mlrd. so'mda)

Sug'urta turlari	Yillar						
	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Shaxsiy sug'urta	6,8	10,1	15,5	15,9	16,1	20,8	31,5
Mulkiy sug'urta	55,5	59,5	78,7	93,6	131,3	163,4	176,2
Javobgarlik sug'urtasi	7,8	11,0	13,6	15,1	18,6	22,5	27,8
Majburiy sug'urta	3,5	7,4	38,3	46,8	65,5	79,1	102,9
Jami	73,6	88,0	146,1	171,4	231,6	285,8	338,4

Jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha, deyarli barcha sug'urta turlari bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlarida o'sish kuzatilgan. Mol-mulkni sug'urta qilish bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlari boshqa sug'urta turlariga nisbatan salmoqli ulushlarni tashkil etib kelmoqda. Quyidagi jadval va grafikda «Kafolat» DASK AJning 2014 yil yakunlari bo'yicha ma'lumotlari asosida sug'urta bozorida hududiy ulushi ko'rsatilgan (2.3.3-jadval va grafik).

Navbatdagi jadval va diagrammada «Kafolat» DASK AJning Xorazm viloyat filiali bo'yicha sug'urta mukofotlari ko'rsatilgan (2.3.4-jadval va diagramma). Sug'urta xizmatlari bozorida yig'ib olingan sug'urta mukofotlari asosan ixtiyoriy sug'urta turlari hissasiga to'g'ri keladi. Bu albatta, yaxshi, chunki bozor avvalambor erkin raqobat va ixtiyoriy sug'urta turlari hisobiga rivojlanishi kerak. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida majburiy sug'urtaning o'rnini beqiyos. Sug'urta turlari bu tarzda amalga oshirilishida ayibdor shaxslar hoxish va imkoniyatlariga qaramasdan davlat salohiyatli jabrlanuvchilarning zararlarini qoplashni kafolatlaydi. Majburiy sug'urta turlarini joriy qilish orqali davlat o'zining ijtimoiy- iqtisodiy muammolarini bartaraf etishi mumkin.

<sup>11</sup> www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

## 2.3.3-jadval


## «Kafolat» DASK AJ filiallarining sug`urta bozorida ulushi

Филиал	2009	2010	2011	2012	2013	2014					
Қорақалпоғистон Р.	8,79	7,03	↓	10,96	↑	8,33	↓	10,09	↑	8,37	↓
Андижон	12,46	11,64	↓	8,72	↓	8,37	↓	8,71	↑	8,17	↓
Бухоро	5,28	4,41	↓	3,79	↓	4,59	↑	3,88	↓	4,03	↑
Жиззах	8,77	11,96	↑	11,70	↓	10,85	↓	12,70	↑	9,33	↓
Қашқадарё	8,54	8,50	↓	10,63	↑	11,59	↑	15,55	↑	13,32	↓
Навий	15,10	16,86	↑	14,41	↓	19,80	↑	16,86	↓	15,60	↓
Наманган	9,55	11,13	↑	9,83	↓	8,49	↓	10,62	↑	8,95	↓
Самарканд	7,47	8,03	↑	6,40	↓	8,78	↑	9,95	↑	9,55	↓
Сурхондарё	11,64	9,86	↓	8,15	↓	8,13	↓	9,06	↑	7,33	↓
Сирдарё	7,18	10,41	↑	11,56	↑	9,91	↓	12,99	↑	7,70	↓
Тошкент вилояти	12,49	13,09	↑	12,23	↓	13,58	↑	15,41	↑	15,81	↑
Фарғона	9,88	9,13	↓	11,62	↑	8,47	↓	10,50	↑	8,83	↓
<b>Хоразм</b>	<b>9,30</b>	<b>6,39</b>	<b>↓</b>	<b>4,37</b>	<b>↓</b>	<b>5,29</b>	<b>↑</b>	<b>7,02</b>	<b>↑</b>	<b>6,49</b>	<b>↓</b>
Тошкент шаҳар	3,45	2,96	↓	2,72	↓	2,52	↓	3,42	↑	2,37	↓
Андеррайтинг М.	0,47	0,63	↑	0,68	↑	0,90	↑	1,33	↑	1,07	↓

Shuningdek, sug`urta sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish hamda majburiy sug`urta turlarini joriy etish orqali davlat bo`shagan pul mablag`laridan sog`liqni saqlash, infratuzilmani rivojlantirish, sug`urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish kabi maqsadlarda foydalanishi mumkin.

## 2.3.3-grafik

## «Kafolat» DASK AJ Xorazm filialining sug`urta bozorida hududiy ulushi



Aytish kerakki, majburiy sug`urtalash yurtimiz moliya bozorini jonlantirish barobarida aholining ijtimoiy muhofazasini yanada mustahkamlashda ham katta rol o`ynaydi. Shu bois ishonch bilan ayta olamizki, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sug`urta amaliyoti, xususan, majburiy sug`urtaning ahamiyati katta. Majburiy sug`urta turlarining qamrovliligini hisobga oladigan bo`lsak, bu o`z o`rinda sug`urtaning rivojlanishiga va keng tarqalishiga imkoniyat yaratadi. Umuman olganda, milliy sug`urta xizmatlari bozorini rivojlantirish va yanada takomillashtirish uchun birinchi navbatda:

**2.3.4-jadval**

**«Kafolat» DASK AJ Xorazm filiali va bo`limlarida 2010-2014 yillarda tushgan sug`urta mokofotlari (ming so`m)**

<b>Хоразм</b>	<b>2010</b>	<b>2011</b>	<b>2012</b>	<b>2013</b>	<b>2014</b>
<b>Филиал</b>	<b>52226,2</b>	<b>48861</b>	<b>99385,2</b>	<b>185174,7</b>	<b>191377,5</b>
<b>Хива</b>	<b>57472</b>	<b>80000,9</b>	<b>98109,7</b>	<b>136710,9</b>	<b>173877,6</b>
<b>Питнак</b>	<b>20398,9</b>	<b>26239,4</b>	<b>41770,1</b>	<b>85482,8</b>	<b>114893,5</b>
<b>Урганч</b>	<b>30051,6</b>	<b>33715,4</b>	<b>88065,1</b>	<b>153595,1</b>	<b>161649</b>
<b>Шовот</b>	<b>64161,8</b>	<b>29456,4</b>	<b>21662,2</b>	<b>32206,3</b>	<b>62625,6</b>
<b>Хонқа</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>10711,7</b>	<b>52234,4</b>	<b>81632,7</b>
<b>Янгиариқ-Боғот</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>29317,2</b>	<b>30728</b>
<b>Хазорасп</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>0,0</b>	<b>10873,1</b>
<b>Жами:</b>	<b>224310,5</b>	<b>218273,1</b>	<b>359704</b>	<b>674721,4</b>	<b>827657</b>

- sug`urtalashni tartibga soluvchi me`yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish va rivojlantirish bo`yicha jahon standartlariga mos keladigan me`yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish;


- sug`urta xizmatlari bozorida faoliyat ko`rsatayotgan sug`urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish;

- majburiy sug`urtaning qonunchilik asoslarini takomillashtirish va joriy qilish, shuningdek, ularning ustuvor turlarini aniqlash;

- sug`urta turlarining o`zini rivojlantirish uchun marketing va anderayting ishlarini jadallashtirish kabi qator chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

**2.3.4-diagramma**

**«Kafolat» DASK AJ Xorazm filiali va bo`limlarida 2010-2014 yillarda tushgan sug`urta mokofotlari (ming so`m)**



Sug`urta xizmatlari bozorida mavjud sug`urta turlarini yanada rivojlantirish va yangi sug`urta turlarini joriy etish, sug`urtalashni to`g`ri joriy etish va ularning turlarini ko`paytirish orqali sug`urta tashkilotlarining investitsion imkoniyatlari oshishiga erishiladi. Bu sug`urta tashkilotlarining moliyaviy imkoniyatlarini oshiradi va respublikaning pul mablag`lariga bo`lgan ehtiyojlarini qisman bo`lsa-da, qondirishi mumkin. Sug`urta xizmatlari bozorining rivojlanishi bugungi kunda davlat organlari, sug`urta tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari ishtirokida faol va keng tushintirish ishlari bilan birgalikda qechmoqda. Ommaviy axborot vositalari tomonidan olib borilayotgan tushintirish ishlari sug`urtani ommalashtirish va sug`urta madaniyatini yuksaltirishda katta rol o`ynaydi, bu esa O`zbekiston sug`urta xizmatlari bozori istiqboli uchun katta ahamiyatga ega.

## XULOSA

O'zbekiston Respublikasi sug'urta xizmatlari bozorida rivojlanish imkoniyatlari yaratilayotganligi va mazkur sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yaqin kelajakda sug'urtaning mamlakat iqtisodiyotidagi roli sezilarli darajada oshishidan dalolat bermoqda. Mavjud holatni yaxshilash maqsadida quydagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning yagona siyosatini belgilash:

- sug'urta munosabatlarini tartibga soluvchi yangi qonun hujjatlari ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish;

- davlat, tashkilot va fuqarolarning majburiy sug'urta sohasidagi manfaatlari sug'urta yo'li bilan himoyalanihini ta'minlovchi me'yoriy-huquqiy asosni takomillashtirish;

2. Sug'urta tashkilotlarining to'plagan mablag'larini investitsiyalashning samarali shakllarini ishlab chiqish orqali joylashtirish, amalga oshiriladigan sug'urta operatsiyalarining foyda keltirish darajasini oshirish uchun qo'shimcha kafolat yaratish;

3. Sug'urta bozori infratuzilmasini takomillashtirish;

4. Sug'urta sohasidagi xalqaro hamkorlikni tartibga solish.

O'zbekistonning sug'urta kompaniyalari tashqi bozorlarga faol kirib borishi, xususan, respublika iqtisodiyotiga investitsiya resurslari jalb qilinishiga shart-sharoit yaratadi.

Jahonda fan va ilmiy-texnika tarqqiyoti natijasida sug'urtalash tarkibiga quyidagi xavf-xatarlar kiritilishi mumkin.

1. Dastlab boshqa sayyoralarga kosmik kemalarining parvozini tashkil qilinishi munoabati bilan kosmosga uchish tadbirlari bo'yicha sug'urta. Ma'lumki, kosmosga uchish yuksak xavf-xatarlar bilan bog'langan.



2. Atom energiyasi asosida ishlaydigan elektr stantsiyalar va boshqaa korxonalar bo'yicha sug'urta. Atom energiyasi natijasida hosil bo'ladigan xavf-xatarlarni sug'urtalash. Bu xavf-xatarlar ham katta zarar keltirishi mumkin.

3. Robotlar va elektron hisoblash mashinalaridan foydalanishda ko'zda tutilgan, lekin sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalardan sug'urtalash. Bu hodisalar ham zarar keltirishi mumkin.

4. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari bo'yicha sug'urta. Bunday sug'urta jahon miqyosida mavjud. Hozircha O'zbekistonda joriy qilinmagan. Bu sug'urta tog'li joylarda daraxtlarni, tibbiyotda ishlatiladigan o't-o'lanlarni muhofaza qilishi, atrof-muhitni ifloslanishdan saqlashsh va boshqalarin o'z ichiga oladi.

5. Yangi xitrolar va kashfiyotlarni ishlab chiqarishga joriy qilishda ilgari ko'zda tutilmagan hodisalar ro'y berishi mumkin. Ana shunday hodisalar etkazadigan zararlardan sug'urta.

Xorijiy mamlakatlar sug'urta kompaniyalarida sug'urta ishlarini tashkil etish bo'yicha qator tajribalar to'plangan. Mamlakatimizda sug'urta ishlarini kuchaytirish uchun birinchi navbatda bu tajribalardan unumli foydalanib, anchagina ijobiy tadbirlarni amalga oshirish mumkin.

1. Sug'urta bozorlarini tashkil qilish va sug'urta nazoratini amalga oshirish.
2. Tashqi savdo bilan bog'langan tadbirlarni sug'urtalash.
3. «O'zbekinvest» tashkiloti faoliyatini kuchaytirish.
4. Turizmni va avtoturizmni sug'urtalashga alohida ahamiyat berish.
5. Kreditni sug'urtalashni kuchaytirish.
6. Javobgarlik sug'urtasining boshqa xillarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Qurilish qommunal xo'jaligi korxonalarini sug'urtalash tadbirlarini ishlab chiqish.
7. Qishloq xo'jaligi korxonalarini sug'urtalashni qayta qurish.
8. Tadbirkorlar va kichik biznesni sug'urtalashning yangi usullarini joriy qilish.
9. Takror sug'urtalashni amalga oshirish.

10. Boshqa mamlakatlar bilan sug`urta sohasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish, sug`urta sohasida xizmat qiluvchi kadrlar tayyorlashda ularning xizmatidan foydalanish.

«O`zagrosug`urta», «Kafolat», «O`zbekinvest» va boshqa qator sug`urta tashkilotlari tashabbusi bilan sug`urtaning yangi tashkiliy boshqaruv shakllari va sug`urtalash xillari joriy qilindi. Bu o`zgarishlar respublikamizda sanoat, qishloq xo`jaligi, qurilish va boshqa tashkilotlarin sug`urtalashni kengaytirshda sug`urtaning rolini oshirishga, sug`urta tashkilotlari bilan kredit tashkilotlarining aloqalarini yaxshilashga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni. T.: Xalq so'zi gazetasi, 2007, 5 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, -T.:, 1998, 52-bob. Sug'urta -445-504 b.

### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ma'ruza va asarlari

1. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida - T.: O'zbekiston, 2005.
2. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari». Toshkent - «O'zbekiston»-2009.
3. Karimov I.A. 2013-yil yakunlari va 2014 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2014 yil 25 yanvar.
4. Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. - T.: O'zbekiston, 2014.
5. Karimov I.A. 2014-yil yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2015 yil 17 yanvar.

### Darsliklar

1. Axunova G.N., Boyev X.I. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va aholini ijtimoiy himoyalash. -T.: O'zbekiston, 2009.
2. Boyev X.I., Boyeva J.B., Mirzoyev S.F. Sug'urta bozori – O'quv qo'llanma. Buxoro, 2008.

3. Boyev X.I., Boyeva J.B., Mulkiy va shaxsiy sug`urta – T: O`quv qo`llanma. 2008.
4. Brealy R. and Myers S. «Principles of corporate finance» 9-th edition, 2008.
5. Галаганов В.П. Страхование дело. – М.: Академия, 2008.
6. Гвозденко А.А. Основы страхования. – М.: Финансы и статистика, 2007.
7. Mirzoyev S.F., Boyev X.I. Shaxsiy sug`urtaning nazariy va amaliy tarkibi. – O`quv qo`llanma. Vuxoro, 2008.
8. Сахирова Н.П. Страхование. – М.: Проспект, 2008.
9. Сухоруков М.М. Профессия страхового агента. – М.: АНКИЛ 2008.
10. Тронин Ю.Н. Основы страхового бизнеса. – М.: Alfa-Press, 2008.
11. Юлдашев Р.Т. Введение в продажу страхования. – М.: АНКИЛ 2008.

#### **Internet saytlari**

[www.mineconomy.cc.uz](http://www.mineconomy.cc.uz) – O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi

[www.mf.uz](http://www.mf.uz) – O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

[www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasi

[www.edu.uz](http://www.edu.uz) – O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligi

«Kafolat» DASK AJning 2010-2014 yil ma`lumotlari.

Umumiy sug`urta sohasi klasslari <sup>12</sup>

№	Nomi	Mazmuni va sug`urta qilish shartlari bo`yicha talablar
1-klass	Baxsiz hodisalar-dan ehtiyot shart sug`urta qilish	Quyidagi hollarda: a) baxsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxsiz hodisa natijasida sog`liqning qattiq shikastlanishi, yoxud; b) baxsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud; v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo`qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari
2-klass	Kasallikdan ehtiyot shart sug`urta qilish	Sug`urta ta`minotining belgilab qo`yilgan pul summasi to`lanishini yoki kasallik yoki sog`liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug`urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi
3-klass	Yer usti transport vositalarini sug`urta qilish	Transport vositalari, o`zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo`l tarkibi bundan mustasno, yo`qotilganda yoki shikastlanganda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urta turlari jami
4-klass	Harakatlanadigan temir yo`l tarkibi sug`urtasi	Harakatlanadigan temir yo`l tarkibi yo`qotilganda yoki shikastlanganda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urtaning turlari jami
5-klass	Aviatsiya sug`urtasi	Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunalari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo`qotilganda yoki shikastlanganda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urtaning turlari jami
6-klass	Dengiz sug`urtasi	Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunalari, asbob-uskunalari, inventari, ehtiyot qismlari yo`qotilganda yoki shikastlanganda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urta turlari
7-klass	Yo`ldagi mol-mulkni sug`urta qilish	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo`qotilganda yoki shikastlanganda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urtaning turlari jami

<sup>12</sup> O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug`urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi qarori

## 1-ilovaning davomi

8- klass	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug`urta qilish	Yong`in, portlash, bo`ron, dovul, jala, ko`chki, tuproqning cho`kishi, yemirilish, yer osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta`siri natijasida mol-mulk (3- va 7-klasslardagidan tashqari) yo`qotilganda yoki shikastlanganda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urtaning turlari jami
9- klass	Mol-mulkni zarardan sug`urta qilish	8-klassda ko`rsatilmagan do`l, qalin qor yog`ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o`g`irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3- va 7-klasslarda ko`rsatilgandan boshqa) yo`qotilganda yoki shikastlanganda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urtaning turlari jami
10- klass	Avtofuqarolik javobgarligini sug`urta qilish	Yer usti transport vositalari va boshqa o`ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urta turlari jami
11- klass	Aviatsiya sug`urtasi doirasidagi javobgarlikni sug`urta qilish	Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urta turlari jami
12- klass	Dengiz sug`urtasi doirasida javobgarlikni sug`urta qilish	Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlag kiradi, uchinchi (jismoniy va yuridik) shaxslarga zarar yetkazilgan taqdirda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urta turlari jami
13- klass	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug`urta qilish	10-12-klasslarda ko`rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi (jismoniy va yuridik) shaxslar oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo`lgan taqdirda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urta turlari

## 1-ilovaning davomi

14- klass	Kreditlarni sug`urta qilish	Sug`urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug`urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug`urta qildiruvchi zarar ko`rganda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urta turlari jami
15- klass	Kafillikni (kafolatlarni) sug`urta qilish	Sug`urta qildiruvchining o`ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug`urta qildiruvchi zarar ko`rganda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urta turlari jami
16- klass	Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklar- dan sug`urta qilish	a) sug`urta qildiruvchining biznesi (xo`jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug`urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo`jalik faoliyati) ko`lami kamayishi natijasida sug`urta qildiruvchi zarar ko`rganda; b) oldindan nazarda tutilmagan harajatlar natijasida sug`urta qildiruvchi zarar ko`rganda (17-klassda ko`rsatilgandan tashqari); v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog`liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko`rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urta turlari jami
17- klass	Huquqiy himoya bilan bog`liq ha- rajatlar sug`urtasi	Sud muhokamasi bilan bog`liq ko`rilgan harajatlar natijasida sug`urta qildiruvchi zarar ko`rganda sug`urta qoplamasi to`lanishini ta`minlovchi sug`urta turlari

**20\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_-sonli shartnomada  
sug`urtalangan transport vositalarining  
RO`YXATI <sup>13</sup>**

№	Rusumi va modeli	Ishlab chiqaril- gan yili	Texnik pasport raqami	Kuzov (shassi) raqami	Dvigatel raqami	Davlat raqami belgisi	Sug`urta qiymati, so`m	Sug`urta summasi, so`m
Jami								

Tomonlarning imzosi:

**Sug`urtalovchi nomidan:**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**(lavozimi, F.I.Sh.)**

\_\_\_\_\_  
**(imzo)**

**M.O`.**

**Sug`urta qildiruvchi nomidan:**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**(lavozimi, F.I.Sh.)**

\_\_\_\_\_  
**(imzo)**

**M.O`.**

<sup>13</sup> O`zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi sug`urta nazorati davlat inspeksiyasi tomonidan 2003 yil 18 yanvarda deponentlangan 3-klass asosida ishlab chiqilgan shartnoma.